

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI

5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun 141-tarix guruh talabasi Ruzmetova
Oydinoy Erkinboy qizining “Shovot tumani rivojlanish tarixi (XX asrning
birinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha)”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:



t.f.n. Nurullayeva Sh.Q.



URGANCH-2018

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I-BOB. XORAZM OKRUGI TARKIBIDA SHOVOT TUMANINING TASHKIL ETILISHI VA DASTLABKI BOSQICHDAGI HAYOTI (1926-1940 yy.)	
1.1. Shovot tumanining tashkil etilishi va qishloq sho'rolari faoliyatning boshlanishi	8
1.2. Qishloq xo'jaligini kooperastiyalashtirish va kolxoz tuzumini barpo etish davridagi murakkab sharoitlarning yechimini topish uchun harakatlar. Tumanda xalq ta'limining tashkil topishi va rivojlanishi.....	14
II-BOB. SHOVOT TUMANI IKKINCHI JAHON URUSHI VA UNDA KEYINGI YILLARDA (1941-1991 yy.)	
2.1. Mehnatkashlarning ikkinchi jahon urushi davridagi fidokorligi va shovotlik jangchilarning frontdagi jasorati.....	22
2.2. Tumanda tinch hayotni ta'minlash va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sa'y-harakatlar	28
2.3. Tumandagi shaharcha va qishloqlar tarixidan.....	41
III-BOB. SHOVOT TUMANINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI TARAQQIYOTI (1991-2010 yy.)	
3.1. Mustaqillik sharoitida tumanda sanoat va agrar sohani rivojlantirish chora-tadbirlari.	53
3.2. Tumanning ijtimoiy hayoti, maorif, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalaridagi ahvol. Shovot yangilanishlar bo'sag'asida.....	57
XULOSA	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	62
ILOVA	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqilligimiz sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi hududida ma'naviy, ma'rifiy, madaniy sohada ko'pgina tadbirlar amalga oshirildi. Xususan ta'lim sohasida ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi.

O'zimiz yashayotgan o'lkalar tarixini o'rganish, ajdodlarimizni qay tarzda hayot kechirganini bilish, biz yosh avlod oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, tarixni bilmasdan turib kelajakka qadam qo'yib bo'lmaydi¹.

Qadimgi o'lka va voha, qal'alar tarixini o'rganish borasida ko'pgina izlanishlar olib borilmoqda. Xorazm viloyati tumanlari tarixini o'rganish, izlanishlarga keng yo'l ochilgan.

Mustaqil O'zbekistonimizning zabardast tumanlaridan biri bo'lgan Shovot tumani tarixini yaratish, o'zing yashab, o'qib kelayotgan yerning tarixini o'rganish hamisha dolzarb mavzu sanaladi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi Shovot tumani tarixi 1926-2010-yillarda deb atalib, dastlab Shovot tumanining tashkil topishi, hududi, chegaralari kelib chiqishi, tuman iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hayoti keltirilgan. Mavzuni yanada yoritish maqsadida o'tmish va o'tmishdoshlarimiz hayotiga Xorazmshohlar, xonliklar davrini ham kiritish, Abulg'ozi Bahodirxon farzandi Anushaxon, otasining oq fotihasi bilan taxtga o'tirib, podshohlik qilgani, Shovot Kat qal'asini qurdirib, ariqlar qazdirganini aytmalikning iloji bo'lmasa kerak. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ham "O'tmishi bo'lmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi² - deya behuda aytmagan.

O'rganilish darajasi.

BMI mavzusini yoritish davomida Xorazm viloyat Arxiv fondi hujjatlari, Xorazm viloyat partiya komiteti arxivi, Shovot tuman nashriyoti hamda boshqa

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. — Тошкент.: "Шарк", 1998, — Б. 6

² Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7 –Тошкент: Ўзбекистон, 1999,-Б.

nashrlar, tuman statistika bo'limi ma'lumotlaridan foydalanilgan holda hamda ilmiy adabiyotlar asosida o'rganildi. Jumladan, akademik olim Ya.G'ulomovning «Xorazmning sug'orilish tarixi»¹, M.Matniyozov muharrirligi asosidagi «Xorazm tarixi» (1-2 -jild)² asarlari bu boradagi eng muhim manbalar hisoblanadi. Shuningdek, «Xorazm haqiqati»³ hamda tumanda chiqariladigan «Shovot istiqboli» gazetalarida tuman hayotini aks ettiruvchi muhim ma'lumotlar aks ettirilgan.

Mustaqillik yillarida ham Shovot tuman tarixini o'rganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Rahim Tohirov, Boltaboy Xudayarov, Nurmat Rajabov, Madiyor Xudayberganov asarlari alohida ahamiyatga ega.

Shovot tumani tarixi bo'yicha Narimon Bobojonov «Shovot tumanida xalq hunarmandchiligi» mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan. Tuman «Sovet paxtakori» (hozirgi Shovot istiqboli)⁴ gazetasida el-yurt tarixini o'rganish borasida qator maqola va sahifalar chop etildi.

Masharif Xudayberganov qalamiga mansub «Xorazm paxta tozalash sanoati»⁵ asarida Xorazmda paxtachilikning rivojlanish tarixi, paxta tozalash zavodlari faoliyati ifoda etilgan. B. Xudayorovning «Xayot so'qmoqlari»⁶ asarida ham tuman tashkil etilgandan keyingi voqealar bayoni o'z aksini topgan.

1960-yilda O'zbekiston kolxoz va savxozlari tarixi jamoatchilik instituti tashkil etilib, bu yo'nalishida katta tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, Tarix fanlari nomzodi Erkinboy Bekmanovning ilmiy izlanishlari Bo'yurachi qishlog'idagi Chkalov nomli (hozirgi K.Otaniyozov), Katqal'a qishlog'idagi «Leninizm» (hozirgi Beruniy nomli, Ijtimoiyat qishlog'idagi «Partiya XIX-s'yezdi» jamoa xo'jaliklari,⁷ tarixnavis jurnalist Nurmat Rajabovning Chig'atoy qishlog'idagi «Moskva» (hozirgi Mehnatobod) jamoa xo'jaliklari tarixining

¹ Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Тошкент: “Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси”, 1959.

² Хоразм тарихи. Муаллифлар жамоаси. –Урганч: “Хоразм”, 1997.

³ Хоразм ҳақиқати. 1930-1950 й.

⁴ Шовот истикболи. 1991-2010 й.

⁵ Худайбергано М. Хоразм пахта тозалаш саноати. –Тошкент: “Шарк”, 2004.

⁶ Худоев Б. Ҳаёт сўқмоқлари. –Урганч, “Хоразм”, 2004.

⁷ Бекматов Э. Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи – Тошкент: Жамоатчилик институти нашри, 1970-78 й.

yaratilishi quvonarli voqea edi.

Ma'lumki, o'tgan asrimizning yetmishinchi yillarida Shovot tumanida turmush madaniyatini yuksaltirishda katta ishlar qilindi. Shu ishlarga bag'ishlab tuman partiya komitetining 1-sekretari Rahim Tohirovning "Qishloq turmush madaniyatini yuksalishi"¹ nomli kitobi chop etildi. Uning "Men Seningman"² asarida o'zining tuman rahbarligi davridagi faoliyati va XX asr II-yarmidan keyingi vaziyatni to'la bayon qilgan. Bundan tashqari yozuvchining "Do'st haqida so'z"³, "Olishuv va g'oliblik nashidasi"⁴, va "El yurt qayg'usi yohud shukronalik tuyg'usi"⁵ kabi bir qancha asarlarida ham Sobiq Sovet davri voqealari batafsil yoritilgan. Bulardan tashqari Ro'zmat Yoqubov, Rahim Otaxonov, Sa'dulla Xusainov, Bahrom Ro'zimuhammad, Salomat Vafolar ham o'z asarlarida Shovot tarixi haqida qo'liga qalam olganlar.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot ishining davriy chegarasi XX asr birinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha (1926-2010-yillar) bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Xususan Shovot tumanining tashkil topishigacha bo'lgan davrni ham qamrab olgan. Mustaqillik yillari qisman yoritilgan.

Maqsad va vazifalar

Shovot tuman rivojlanish tarixini XX asr birinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha davrdagi tarixini ilmiy jihatdan o'rganish ushbu tadqiqotning maqsadidir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Shovot tuman tarixi, uning tashkil topish va rivojlanish davrini o'rganish va tahlil qilish;
- Tumandagi madaniy hayot, ilk maktablarning ochilishi, savodsizlikni tugatish kabi o'zgarishlarni xalq hayotiga ta'sirining aks ettirilishi;

¹ Tohirov P. Qishloq turmush madaniyati yuksalishi. –Toshkent: "Muxarrir", 1985.

² Tohirov P. Men seningman.- Toshkent: "Turon zamin ziё", 2017.

³ Tohirov P. Dўst haqida sўz.- Toshkent: "Muxarrir", 2013.

⁴ Tohirov P. Olishuv va g'oliblik nashidasi. –Toshkent: "Muxarrir", 2013.

⁵ Tohirov P. El-yurt qayg'usi yohud shukronalik tuyg'usi. –Toshkent: "Turon zamin ziё", 2015. -

- Urush yillarida tuman iqtisodiy ahvoli, urushga qilingan moddiy yordam, shovotlik o'g'lonlarning jasoratlari tahlil qilish orqali o'rganish;
- Urushdan keying davrda tumanda tinch hayotni ta'minlash uchun amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni o'rganish hamda qiyoslash;
- Tuman shaharcha va qishloqlari tarixini o'rganish;
- Bu davr tarixiy jarayonlarini ilmiy tadqiq etilishining bugungi kunda O'zbekiston tarixi fanining rivojlanishi va tarixiy bosqichlardagi o'rni va ahamiyati.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari, fundamental asarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari, fundamental asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz tarixini o'rganish bilan bog'liq qarorlari, taniqli etnograf, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi. Tanlangan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda uni yanada chuqurroq va batafsilroq yoritish maqsadida bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Mavzuning ilmiy yangiligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Shovot tumanining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixini ilmiy jihatdan eng so'nggi ma'lumotlar asosida yoritildi. Bu mavzuni o'rganish davomidagi ilmiy tadqiqotlar unchalik ko'zga tashlanmaydi. Shu bois, XX asr birinchi yarmidan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davr siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy tarixini yoritish, mavzu mohiyatini ochib beruvchi tarixchi-olimlar asarlari va nashriyot materiallari asosida bildirgan fikr-qarashlari izchil va tugal umumlashtirilib, ilmiy asosda tahlil qilindi.

- Shovot tumani tashkil topishi va rivojlanishi tarixi haqidagi bugungi kunga qadar yozilgan ilmiy tadqiqotlar tanqidiy va qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, yangicha qarashlar shakllandi hamda tugal ilmiy xulosalar chiqarildi;
- Tumanning qishloq xo'jaligi, agrar sohadagi qilingan ishlari, tuman ijtimoiy-

iqtisodiy hayot masalalari bilan tanishildi;

- Tumandagi madaniy hayot, ilk maktablarning ochilishi, savodsizlikni tugatish kabi o'zgarishlarning xalq hayotiga ta'siri aks ettirildi;

- Urush yillarida tuman iqtisodiy ahvoli, urushga qilingan moddiy yordam, shovotlik o'g'lonlarning jasoratlari o'rganildi;

- Urushdan keyingi davrda tumanda tinch hayotni ta'minlash uchun amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishildi;

- Tuman shaharcha va qishloqlari tarixi bilan bo'g'liq jarayonlar o'rganildi;

- Mustaqillikdan keyin tuman ijtimoiy iqtisodiy madaniy sohasida amalga oshirilgan islohotlar bilan tanishildi va xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Shovot tumani tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan arxiv hujjatlari, mavzuga oid tarixiy tadqiqotlar, mavzu davriga oid statistik hujjatlar, nashrlar tadqiqot ob'ekti va predmetini tashkil qiladi. Shunisi muhimki, bizning mavzumizga oid izlanishlarning barchasi eng so'nggi metodlarda, qiyosiy-solishtirma uslubida o'tkazilib, ma'lumotlar statistik va taqqoslash uslubi asosida tahlil qilindi. Bu esa mavzumizning yanada ilmiy jihatdan to'liq asoslanishiga va xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tadqiqot usullari. Tarixiy xulosalar chiqarishda manbalarga tanqidiy nazar bilan yondoshildi. Foydalanilgan tarixiy tadqiqot xulosalarini qanchalik ilmiy asoslangani bosh mezon qilib belgilandi. Tarixiy xolislik, qiyosiy solishtirma tarixiy voqealar xronologik izchillik va davriy ketma-ketlikda berish kabi usul va tamoyillardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ish natijalaridan Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlari hamda maktabning tarix o'qituvchilari va o'quvchilari uchun o'lkashunoslik to'garaklarida hamda O'zbekiston tarixini o'rganishda uslubiy material sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi: Bitiruv malakaviy ish tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va taqdimotdan iborat.

I-BOB. XORAZM OKRUGI TARKIBIDA SHOVOT TUMANINING TASHKIL ETILISHI VA DASTLABKI BOSQICHDAGI HAYOTI (1926-1940 yy.)

1.1. Shovot tumanining tashkil etilishi va qishloq sho'rolari faoliyatning boshlanishi

Shoxobod (xalq tilida Shovot) o'zining ajoyib an'analari, boy tarixiga ega. Shovot tumanining rivojlanish tarixini kengaytirib, qadimda o'tmish avlod ajdodlarimiz ma'naviyat, ma'rifat yulduzlari bo'lmish Abulg'ozi Bahodirxon, Niyozmuhammad shayx, yurtboshi, elboshilar Anushaxon, Otaliqbek, Nurjon Botir, haqida ham qisqacha to'xtalib o'tishni ma'qul topdik. Zero, ularsiz Shoxobod tarixi to'laligicha o'z isbotini topmagan hisoblanardi.

Biz Abulg'oziy Bahodirxon 1643-1683 yillarda Xiva xonligini iymon e'tiqodla boshqarganligi, turkman, fors, tojik, arab va mo'g'ul tillarini puxta egallab, "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" asarlarini yozib qoldirganligini yaxshi bilamiz¹. Abulg'oziyxon Xiva xonlari orasida o'ta tadbirkorligi, tashkilotchiligi va bilimdonligi bilan ajralib turadi.

"Xorazm tarixi bayoni" deb atalgan hujjatlar, tarixiy shaxslar solnomalariga nihoyat boy. Bu risolaning muallifi ham Shovotlik tarixnavis bobomiz Niyozmuhammad Shayx Eshmuhammad Shayx o'g'lidir.

Risolaning bir qismi sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi Leningrad bo'limida V 723 (584) raqami bilan saqlanmoqda. Bu haqda Ozarbayjonli akademik Ziyov Bunyodov "Sovet turkologiyasi" jurnalida bayon qilgan:

“Qalam yo'qtim xatim bitam ro'zkor
O'zim ketsam xattim qolsin yodigor
Al faqir, al-haqir Niyozmuhammad Shayx
Ibn G'oziy Eshmuhammad Shayxn o'g'li
Dar sana 116 va allohu a'lam bi-s-sa-vob²

Anushaxon davrida Xorazmni eng yirik kanallaridan – Shohobod va Yormish

¹ Xorazm tarixi. 1-jild. -Urganch: "Xorazm ta'xriyat", 1996, -B. 249

² Xiva jurnali. 1993. 2-3-sonlar.

kanallari qurilib ishga tushirildi. Munisning ko'rsatishcha, Yormish kanalining qurilishi Yangi Kot (Katqal'a) qal'asining bunyod bo'lishi bilan aloqadordir. O'sha vaqtda suvsizlikdan azob chekayotgan qadimiy Kot aholisi Anushaxon farmoni bilan daryoning chap sohiliga yangi Kot qal'asiga ko'chirildi. Bu yangi qal'aga Yormish kanali orqali suv chiqarilib, uning oyog'i Ali-eli (Iloqli) qal'asigacha cho'zilgan.¹ Shovot kanali ham Xonqa yaqinidan tortilib, oxiri Iloqli qal'asining Shimoli g'arbiga keltirilgan. Kanalning markaziy qismida atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan bir qal'a qurilib, unga Shohobod qal'asi deb nom berilgan².

Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, 1680-1681 yillarda Shovot (Vodak deb atalgan) kanali rekonstruksiya etildi. Bu kanalga Anushaxon davrida Obod deb nom qo'yilgan.. Keyinchalik unga Shohobod deb nom berilgan. Qisqa va talaffuz etish jarayonida Shohobod atamasidan Shovot nomi yasalgan va u bugungi kungacha shu tarzda aytiladi.³

Xiva xonliklari davrida Shovotda Shovot bekligi, Monoq, Katqal'a hokimliklari mavjud bo'lib, davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy madaniyati shu beklilik hokimliklari orqali boshqarilgan. Shovot bekligi deb atalishiga sabab sho'ro inqilobigacha bo'lgan 2,5 asr davomida Shovotni Otaliqbeklar boshqarib kelganlar.

Shu o'rinda Otaliqbeklarning yetakchi avlodlaridan biri Hazrati Vali Otaliq ishlariga bir nazar solsak:

Sulton Uvays Xorazmda Islom dinini targ'ib qilish payg'ambarimiz yo'lini tutgan alloh taoloning ishqida "hu-haq" deb umrini o'tkazgan avliyolar avliyosi (Sulton Uvays Qoraynin) fors mamlakatlarini musulmon qilmoq uchun Hazrati Ali boshlagan urushda Eronning So'fiyon shahrida (37-hijriy) 659-milodiy Shavvod oyining 17-kuni shahid bo'ladi. Ko'z yumganlaridan so'ng urushda qatnashgan musulmon davlatlari podshohlari bobomiz jasadlarini o'z yurtlariga olib ketish uchun tortishadilar. Shunda Hazrati Ali ularni to'xtalib bir kun ruxsat oladi va istirod qilib yotadi. Uyqusida tushlarida payg'ambarimiz Muhammad sallollahu

¹ Хоразм тарихи. 1-жилд. -Урганч: "Хоразм тахририят" 1996, –Б. 249

² Ўша асар. –Б. 203-204

³ Холимбетов К, Эшжонова Ш. Хоразм мироблари шажараси. -Урганч: "Хоразм", 2001, –Б. 22

alayhi vassallamni ko'radilar.

Payg'ambarimiz tizzalarida Sulton Uvays Qorayinning boshi bo'lib, uni silab o'tirgan bo'ladi va aytadiki do'stim Sulton Vays Qoraniyning makoni Xorazmdir. Hazrati Ali uyqularidan turib podshohlarga buyuradi: - "Hammalaringiz tobut yasatinglar", shunda yettita podshoh tobut yasatganlar. Hammasining tobutlarida payg'ambarimizning karomatlari bilan Sulton Vays Qorayinning jasadlari ko'rinadi. Haqiqiy jasad Xorazm podshohi yasatgan tobutga solinib Xorazmga yuboriladi. Tobutni Xorazmga olib kelganlaridan keyin bobomizning butun umri o'tgan Sulton Vays tog'iga dafn qilinadi va birinchi maqbara Sulton Muhammad Xorazmshox tomonidan (hijriy 375) milodiy 988-yilda qurilgan. Bu maqbarani Chingizxon (600-hijriy) milodiy 1221-yilda buzdirib tashlagan. Keyin ko'p yillar davomida maqbara qayta qurilmay, qarovsiz qoladi. Milodiy 1450-yillarda Xorazm xoni Eltuzarxon tomonidan qurdirilgan maqbara ham Xorazmda bo'lgan kuchli zilzila natijasida yemirilib, qulab buzilgan. Yana yillar o'tishi bilan uchinchi, bizgacha etib kelgan maqbarani Xiva xoni Ollaqulixon (hijriy 1215) milodiy 1836-1837 yilda qurdirgan.

Qurilishga Vali ota degan kishi boshchilik qilgan va o'ziga ham maqbara qurdirgan. Lekin ba'zi sabablar bilan ya'ni Amudaryoning muzlab, muz ko'chishi oqibatida uning jasadi Xorazm vohasidagi Shovot qal'asidagi qabristonga qo'yilib, o'zi qurdirgan maqbaraga qo'yilmagan. Bu maqbara hozir Vali ota maqbarasi nomini olgan¹.

Shovot tumani tarixida chaqnoq yulduzlardan biri Nurjon Botir Mir Ohun o'g'lidir. Xivadagi Saidboy madrasasining mudarrisi Omalmiroxun o'g'li

Nurjon ilk savodni padari buzrukvori, volidai muxtaramasidan o'rgandi. Yigit yetilib aqli tiniqlashgach chavandozlik, dutor mashqi, sal keyinroq esa g'azal-mulkiga ishq tushdi. U tabiatan sho'x, o'yinqaroq yigit edi, ba'zan Urganch Xiva yo'lidan o'tgan boylar, savdogarlarning mollariga qo'l cho'zib, g'arib bechoralarga

¹ Хасанбой Маткарим Эшон ўғли, Абдураим Аминжон Эшон ўғли. Султон Вайс Қорайиннинг тарихи. –Т., 1991, –Б. 46

ulashar, tengqur do'stlari bilan sho'xliklar qilar edi. Marvdan kelayotgan bir savdogarning otini tortib olib zindonband etildi.

Matmurod devonbegi yosh yigitning umrini xazon etmaslik uchun Nurjonda qaynoq qon, g'ayrat shijoat jo'sh urib turganini aytib, uni Monoq hokimi qilib tayishlash maslahati bilan Muhammad Raximxon Feruz qabuliga kirdi. Uni notinch Monoq hududiga hokim qilib jo'natadilar.

Monoq bir tomoni Toshxovuz, ikkinchi tomoni Urganch, G'ozovot, Gurlan oralig'idagi el. Elning Taxta tumani Xiva shahri bilan savdo-sotiq ishlariga ham yurib turibdi. Lekin Monoqda ko'z ko'rib dil yayraguday qal'a yo'q. Bor yo'g'i o'n, o'n besh loy devor tiklashgan yer-Monoq dehqon bozori bor, u ham abgor ahvolda, mutlaqo qayta qurish kerak.

Bu fikr navkarlar, ulamo-yu, el-elatga ham ma'qul. Shu tariqa Shovot kanali chap sohilida qal'a qurilishi jaxdu jadal boshlab yuborildi. Qator qiyinchiliklar, iqtisodiy inqirozlar yuz berdi, ammo Monoq qal'asi qurilishi ko'pga qolmay savdogarlar, bozorчилarni o'z bag'riga oldi. Har bozor kuni kanoralarga 20-25 bosh bo'rdoqi ho'kiz go'shti, 50 ga yaqin qo'chqor go'shti ba'zan yetinqiramasdi. Shunday paytlarda Nurjon Botir chorva poda va qo'y suruvlarini bozorga yaxshiroq, Oqvoshli ko'lga keltirib o'tlatishni topshirib qo'ygandi. Kanoralarga go'sht, bozor rizq-ro'zga kiyim kechak uy jixozlari oldi sotdiga to'la edi. El tinch, yurt faravon.

Nurjon Botir ko'ngliga qum etagida yana bir qal'a tiklash, millatchi yovmutlar yo'lini butkul to'sish istagi tinchlik bermay qo'ydi. Qum etagidan qum yop kanalini qazdirib partov yerlar gullab ketdi, bir emas ikki qal'a qurildi.

1913 milodiy yilda yovmut Shommikal xonga qarshi bosh ko'tardi. Unga qarshi Shoxnazarboy, Nurjon Botir navkarlari otlandilar. Savash jahdu jadal davom etdi. Oraliq nihoyat yaqin masofa o'qlar chiyillab uchadi.

-Botir bo'lsang tik ko'tarilib savashga chiq! Nurjon Botir o'zi sezmagan holda boshini ko'tardi-ki o'q peshonasidan tegdi. Uning qonli jasadini savash maydonidan olib, Monoqqa keltirdilar, ertasi kuni o'zi tug'ilib o'sgan el Kenagas

qishlog'i Zorliqbobo qabristoniga dafn etildi.

Nurjon Botir getavardi to'manlab,
Kummasina gul qistirdi chamanlab,
Yo'mit qurg'ay otib oldi amallab,
Monoq elin go'zlarinda yosh qoldi.

Yuqorida tilga olib o'tgan ajdodlarimiz yurt-elni boshqargan umri azizlar edi.¹

Sho'ro inqilobining g'alabasi haqida gapirganda, 1920-yilda bo'lgan g'alayonlarni eslamasdan iloj yo'q. Chunki 1920-yilning 2 fevral kuni jo'shqin Amudaryoning chap qirg'og'idan o'ng qirg'og'iga o'tgan Shaydakov va Sherbakov komandirlik qilgan otliq eskadron askarlari asrlardan asrlarga davom qilib kelgan podshohlik va xonlik saltanatini to'zgi'tib, yo'qotib tashlashni o'z oldilariga bosh maqsad qilib qo'ygan edilar. Ular qurolli kuch orqali o'z maqsadlariga erishdilar – 2 fevral kuni Xiva xonligi bosib olindi va sho'ro hukumati tashkil bo'lganligi e'lon qilindi.

Asrlar davomida o'z erki ixtiyori bilan hur va ozod yashab kelgan xalq asta sekinlik bilan bo'lsa ham yangi sho'ro hukumati qonun qoidalariga majburan bo'ysundirila boshlandi. Beklik, hokimliklar o'rnida uyezdlar qaror topdi. Shovot bekligi, Monoq hokimligi, Kot qal'a uyezdiga birlashtirildi va unga Ashirdo'm Yusupov o'zining besh nafar a'zosi bilan hokimlik qila boshladi. Qishloqlarda avval qishloq xo'jaligi artellari, so'ngra qo'shchi uyushmalari, o'nliklar tashkil topdi. Bundan maqsad mahalliy aholini ish bilan ta'minlash ularning boshini biriktirishdan iborat edi. Qishloqlarda mashina prokat punkti "Selxozsovet" yuzaga kela boshladi. Dehqonlar yetishtirgan dehqonchilik mahsulotlarini "Selxozsoyuz" sotib olib haq to'lar edi.

Shovot qancha qancha urush, tamaddunlar va iqtisodiy, madaniy yuksalish mezonlarini o'z boshidan kechirgan tabarruk zamin hisoblanadi. Xonlik davrida el, avomni masjidqo'm, oqsaqolliklar boshqargan bo'lsa 1920 yil sho'ro inqilobi amall olib, Shovot bekligi, Monoq, Kot hokimliklari tugatilib, Kot uyezdi qaror

¹ Шовот мавжлари. -Урганч: "Хоразм", 2001, –Б.31

topdi. Qizil oqsaqol, “dom”lar yuzaga keldi. 1924 yil milliy chegaralanishdan keyin O‘zbekiston Sovetlarining birinchi s‘yezdi (1925 yil 13-17 fevral) O‘zbekiston SSR tashkil topishi to‘g‘risida deklaratsiyani tasdiq etgach, SSSR Oliy Sovetining ikkinchi s‘yездida (1925 yil 13 may) O‘zbekiston Respublikasi sobiq Ittifoqi tarkibiga qo‘shib olindi. “Sovet” so‘zi shu daraja ommalashib ketdiki, 1925-1926 yillarda tumandagi hamma qishloqlar qishloq Sovetlari deb atala boshlandi. Sho‘ro ish yuritish va ommani boshqarishda tekis va ravon yo‘lga chiqib oldi. Xorazm okrug deb aytiladigan bo‘ldi. 1926 yil kuzida Xorazm o‘lkasidagi katta-kichik 24 ta uyezd birlashtirilib, 10 ta yirik rayon (tuman) ga aylantirildi. Ularning ichida Shovot tumani ham tashkil etildi.¹ 1926 yil 29-sentabr Shovot tumanining tashkil etilgan sanasi hisoblanadi.

Uyezd tugatilib, tumanlar tashkil etilgandan keyin, tuman firqa qo‘mitasi ijroiya byurosi qaror topdi. Toshkentlik Karimov ijroiya byuro rahbari, Muxin, Rajabboy Yusupov, Shoymardonovlar byuro a‘zolari, Katqal‘alik Abdulla Abdurahmonov rayjroqo‘m raisi qilib tasdiqlandilar. Tumanda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayot 1925-yil oxirida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston markaziy firqa qo‘mitasi ikkinchi s‘yezdi talablari asosiga qurilgandi. Yer islohoti boshlandi. Kuraklar, Qiyot, Oq Masjid qishloqlari yer islohotiga birinchi bo‘lib kirishdilar. Sulton Jumaniyozov, Ro‘zmat Xudayberganov, Bo‘yrachi qishlog‘idan Sharif Bobojonovlar yer islohoti o‘tkazish tashabbuskorlari bo‘lib maydonga chiqdilar. Aniq qilib aytganda, sho‘roning quloqlari sinf sifatida tugatish siyosati boshlangandi.

1.2. Qishloq xo‘jaligini kooperatsiyalashtirish va kolxoz tuzumini barpo etish davridagi murakkab sharoitlarning yechimini topish uchun harakatlar. Tumanda xalq ta‘limining tashkil topishi va rivojlanishi (1925-1940-yillar)

Sho‘roning kolxoz (jamoaxo‘jalik)lar tashkil etish yo‘lidagi intilish, izlanishlari kuchaygandan kuchayib bordi. Sho‘ro hukumati ommaning

¹ Хоразм тарихи. 2-жилд. -Урганч: “Хоразм тахририят”, 1997, –Б. 96

uyushqoqligini ta'minlash orqali – kolxozlar, jamoa xo'jaliklari tashkil etish sari yetaklab borar edi. Va nihoyat 1929-yilning dekabr oyida Arvik qishlog'ida "Olg'a" nomli qaldirg'och jamoa xo'jaligi yuzaga keldi.¹ Sho'ro hamma yerda kolxozlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun bor kuch g'ayratini hech ayammasdi. Boshqa qishloqlarda ham dehqonlar uyushib, birin-ketin kolxozlar tashkil etishga kirishdilar.

Bir hujjatga ko'z tashlab o'taylik: Shovot rayonida kolxozlashtirish harakatining borishi yuzasidan axborot:

Shovot rayonida sug'oriladigan yerlarda kolxozlar tashkil etish yuzasidan 1930 yil 23 yanvar kuniga qadar tubandagi ishlar amalga oshirildi, Qal'a Yusufboy qishloq Sovetida 13-masjidkom 468-xo'jalik, Royat qishloq sovetida 7 masjidko'm 213 xo'jalik, Monoq Cho'qli sovetida 7 masjidko'm 446 xo'jalik, to'la kollektiv xo'jaliklarga o'tdi. Oq Masjid qishloq sovetida 41 xo'jalik, Ko'raklar qishloq sovetida 17 xo'jalik, Shovotqal'a qishloq sovetida 25 xo'jalikda kolxozlar tuzish uchun ishonchli yadro yaratildi. Yabliqangli qishloq sovetida bo'lib o'tgan yig'ilishida bednyak (kambag'al) lar kollektiv xo'jalik tuzishga qaror qildilar. Rayon va qishloq sovet faollari kengaytirilgan plenum yig'ilishida 7 qishloq sovetida yoppasiga kolxozlar tuzish va boshqa qishloq sovetlarida bittadan kolxoz tuzish, bahorgi ekish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish haqida vazifa qo'ydi. Raypasevkom (bahorgi ekish mavsumini o'tkazish qo'mitasi) yuqoridagi ahvol bilan tanishib tadbirni ma'qulladi va qishloqlarga vakillar yubordi. Rejalangan ishlar fevral boshigacha uddalanishi vazifa qilib belgilandi. Vakillarga yo'l-yo'riq statistik ma'lumotlar berildi. Ishni Bekyop kanali tevaraklarida – Xitoy, Royat qishloqlarida jadallashtirish maqsadga muvofiq deb topildi. Shu qishloqlar hududlarida 75 % foiz maydonga urug'lik chigit ekish (maydoni) imkoni borligi ta'kidlandi. Plenum yig'ilishida bosh agronom Shugayev suv olish nasoslarining bahorgi ekish mavsumiga to'la taxt bo'lmasligi haqida gapirdi va bu masalani Okrug yer bo'limi majlisiga kiritib, qo'shimcha yordam so'rashni taklif etdi.

¹ Тоҳиров Р. Мен сенингман. -Тошкент: "Турон замин зиё", 2017, -Б. 7

1929 yil qishida odamlar sobiq Monoq hokimi Nurjon Botirning keng hovlisiga jamlandilar. Shu yerlik Shix Davlatov uning ukasi Bozorboy Davlatov, Ollayor Ernafasov, Hayitboy Bekmurotov, Avazjon Rahimovalar shu yerda jam edilar. Qishloq tuman fuqaro qo'mitasidan yuborilgan vakil Polvon Matniyozov, qishloq qo'shchi uyushmasi rahbari Norboy qovoq jamoa xo'jaliklari afzalliklari haqida ma'ruza qildilar. Yangi qaror topgan jamoa xo'jalikni qozonida go'sht qaynab, dasturxonidan bol tomidi. Har ovqat mahal kishi boshiga bir dona issiq cho'rak qo'yib o'taverar edi. Dalada ishlaganlarga mehnat puli va mukofotlar naqd edi. Kolxozda yaxshi ishlaganliklari uchun Shix Davlatov bir bosh xo'kiz, Safarboy Ro'zmatov bir bosh sigir bilan mukofotlandilar.

Beshmargan qishlog'ida ayollar guruhiga Saodat lugchak laqabli ayol bosh bo'lib kelardi. Bu voqeani Chig'atoy qal'alik mehnat faxriysi Rahimbergan Rahmatillayev shunday ta'riflab bergandi. – O'sha ilk yoz kunida tuman yoshlar qo'mitasi vakili Bekjon Matniyozov bizning Ittifoq jamoa xo'jaligimizga kelgan edi. Qishlog'imiz ayollari uni tayoq bilan savolashga boshladilar. Uni tom tepasiga chiqarib zanggi (narvon) ni olib qo'ydik. Ayollar ketgach, men uni otinga mingazib tuman firqa qo'mitasiga xabar yetkazish uchun jo'natib yubordim. Tumanning hamma qishloqlaridan ayollarning bostirib kelishi isyon keng miqyosida tayyorlagani ayon edi. Ba'zilari rahbarlar ustiga tayoq olib yugurar edi. Tuman firqa qo'mitasi ijroiya byuro rahbari Nurahmad Abdusalomov ayollarga uylariga qaytib ketishlarini aytib, kolxoz, masalasini kengaytirilgan byuro yig'ilishida qarab chiqishni va'da qildi. Ammo, ayollar ortga qaytmadilar. - Kolxozlarning keragi yo'q bizga. Shu tariqa ming mashaqqatlar bilan tuzilgan kolxozlar chok-chokidan so'kilib ketdi.

Firqa va Sho'roning "ur-sur" lari bilan 1934 yilda quyidagi jamoa xo'jaliklari qaror topib, tuman paxta tayyorlash shirkati raisi Iskandarov, bosh hisobchi Varonin bilan har gektar hisobiga 4-8 stentnerdan paxta yetishtirish yuzasidan shartnoma tuzdilar: "Arvik qishlog'idan – "Olg'a", "Qizil sharq", "Qizil tong", "Mehnatkor"; Qangli qishlog'idan – F.Xo'jaev nomli, "Faoliyat", "Mehnatkash",

“Guliston”; Bo’yrachi qishlog’idan – “G’ayrat”, “Proletariat”, “Kommunist”, “Kambag’al”, “Boltaev” nomli; O’yrat qishlog’idan – Stalin nomli, “Qurilish”, Strelkov nomli; Arab qishlog’idan Kalinin nomli, “Madaniyat” “Jumhuriyat”, “Ozod”; Qiyot qishlog’idan – “Zarbdor”, Kalinin nomli, “Yangi yo’l”, “Inqilob”, “Voroshilov”, “Komsomol”; Xitoy qishlog’idan – Stalin, Bauman nomli, “Paxta uchun kurash”, “Traktor”, “Yoxtiliq”, “Qizil oy”, “Kooperastiya”, Dzerjinskiy nomli; Qal’a Yusufboy qishlog’idan – Voroshilov, F.Xo’jaev nomli, “Kambag’al”, “G’ayrat”, “Inqilob quyoshi”, “Ittifoq”, “Uchqun”; Shovotqal’a qishlog’idan – “Bolshevik”, Isroilov nomli, “Qizil zarbdor”, “Qizil bahodir”, “Hujum”. “Faoliyat”, “Ozod”, “Oq oltin”, “O’tkir”; Oqmachit qishlog’idan – Oxunboboev nomli, - “Qurilish”, “Qizil oktyabr”; Beshmargan qishlog’idan – “1 May”, “Oq oltin”, “Pioner”, Karl Marks nomli, “Paxta yo’li”, “Qizil O’zbekiston” jami 97 jamoa xo’jaligi ot-ho’kiz bilan yerni haydab “amriko” navli urug’lik chigit ekishga kirishdilar¹.

1930 yilda kolxozga qarshi ayollar isyoni va boshqa qarshiliklar yengib o’tilib jamoa xo’jaliklarida tinch ijodiy mehnat boshlandi. Tumanda tashkil topgan 96 kolxoz-jamoa xo’jaligi asta-sekinlik bilan qaddini rostdashga kirishdi.

Ammo, iqtisodiy xo’jalik tashvish, qiyinchiliklari ham talaygina edi. Texnika yetishmasligi uchun hamma g’alla ishlari qo’lda bajarilar, suv chiqirlar (suv chig’irig) orqali chiqarilar, ariq zovurlar qo’lda qazilar edi.

O’ttizinchi yillar oxirlariga kelib kolxozlarga STZ yer haydash, narmol markali g’o’za qator oralarini chopiq qiladigan traktorlar paydo bo’la boshladi-ki, dehqon mehnati sal yengillashganday bo’ldi. Aynan shu davrlardan bug’doyzorlarning o’rniga paxta urug’i ekila boshlandi.

Mayda jamoa xo’jaliklari yiriklasha boshladi, har gektar ekin maydoni hisobiga olinadigan hosil ham ko’tarila boshlandi. Kolxozlar, joylarda mingchi-staxanovchilar paydo bo’la boshladi. Kolxoz ishi rivoj olib, ravon izga tusha boshladi.

¹ 1934 йил пахтачилик бошқармаси билан тузилган контракт ахдли шартномаси.

O'ttizinchi yillar ikkinchi yarmida qishloqlarda jamoa xo'jaliklarida ham iqtisodiy madaniy yuksalishlar ko'zga tashlana boshladi. Bunga sabab Sovet davlatidagi Stalingrad traktor zavodi yildan-yilga STZ markali traktorlarni ko'plab ishlab chiqayotgani va bu haydov traktoridan tashqari yana g'o'za qator oralariga ishlov beradigan "pariol markali mexanizm" agregat paydo bo'ldi-ki, u yerdan unib chiqqan g'o'zalarga ishlov berishda butun yoz bo'yi ishlatilardi.

Ikkinchidan kolxozlarda ommaviy tus olgan mingchi-staxanovchilik harakati natijasida madaniy o'g'it, kerosin tashish bilan dalalarni o'g'itlar edilar. Yer unumdorligini oshirishdagi ana shu kompleks agrotexnik tadbirlar dalada hosildorlikni sezilarli oshirdi, kolxozchi dehqon daromadi osha bordi. Sho'ro hukumati kolxozchilarning ilg'or otryadini rag'batlantirishni ham unutmagandi – ular Moskvaga Butun Ittifoq xalq xo'jaliklari ko'rgazmasiga, Toshkent shahrida o'tkaziladigan Qishloq xo'jalik ilg'orlarining qurultoylariga taklif etilar potifon mol, qo'y boshqa qimmatbaho sanoat buyumlari bilan taqdirlanib turilardi. Nihoyat xalq dasturxoniga bug'doy non tushib, do'konlar rastalari to'lisha bordi.

Ilm ma'rifat yo'li hamisha chig'ir toshlar va sirpanchiq so'qmoqlardan iborat. Unga uzoq tayyorgarlik, mashaqqatlar bilan erishiladi. Buning uchun qizil inqilob dohiysi Leninning yo'l yo'riq, ko'rsatmalariga chuqur nazar tashlab o'taylik. Mamlakatimizda savodsizlik kabi hol davom etar ekan, siyosiy maorif haqida gapirish juda qiyin bo'ladi. Savodsiz kishi siyosatdan chetda turadi, unga avvalo alifboni o'rgatish kerak. Busiz siyosat bo'lishi mumkin emas.

Bu 1919-yil dohiyning savodsizlikni bitirish to'g'risidagi dekretga imzo chekkan chog'idagi ko'rsatmasi edi.

Oradan yana bir yil o'tdi. Rossiya yoshlari o'zlarining uchinchi s'yezdiga jamlandilar. Ular oldida ma'ruza qilgan dohiy s'yezd minbaridan turib "o'qish, o'qish va yana o'qish" degan chaqiriqni o'rtaga tashladi-ki, u sho'ro davrining salkam sakson yilida jaranglab turdi.

Xorazmda ham sho'ro hukmronligi amal olgach, maktab maorif tizimi yuqorining ko'rsatmasi asosida odimlashga majbur edi. Rus tuzem maktablari

ko'payib, yangi maktablar tashkil etila boshlandi. Yangi maktablar tashkil etish, uni mustahkamlash jarayoni buyuk alloma akademik, sostialistik mehnat qahramoni Toshmuhammad Niyozovich Niyoziy asarlarida yaqqol oydinlashtirib berilgan. U o'zining "Hayot maktabi" xotiralar kitobida shularni yozadi: "Maktab (eski) da o'qish muddati aniq bo'lmay, har bir bolaning layoqatiga bog'liq edi. Odatda "haftiyak" dan keyin "chorkitob" boshlanardi. "Chorkitob" dan keyingi o'qiladigan kitobni har kimning layoqatiga qarab domlaning o'zi tayin qilardi¹.

O'sha paytni eslaganlarida, og'ir dard xasrat bilan: -Har haftaning payshanba kuni domlaga "payshanbalik" olib kelardik, -deyishadi. Ko'p bolalar odatda ikkita non, boylarning bolalari esa 5-10 tiyin olib kelardi. Tabiiyki kam miqdorda "payshanbalik keltirgan" kambag'alning bolasi ko'proq jazoga tortilardi. Shular bois eski maktabga yoshlarning havas ixlosi unchalar baland emasdi. 1920-yillar o'rtalaridan yangi sho'ro maktablari tezkor amal olgani shundan edi. "Eski maktab yoshlar ongini zaharlaydi" degan yozuvlar ko'p masjid va madrasalar devorlarida paydo bo'la boshladi.

Tumanda dastlabki qishloq yoshlar ish maktablari qaror topa boshladi. Birinchi yangi sho'ro o'smirlar maktabi 1925 yilda Nurjon Botirdan tortib olingan qal'ada tashkil etildi. Bu davrda Arvik elatida hayot ancha notinch-sho'ro faollariga qarshi qurolli to'dadan hujumi uzluksiz davom qilib turardi. Shu bois maktab tuman markazidagi sho'ro idoralari gavjum qalandarxonona (hozirgi umumiy ovqatlanish xonasi) ga ko'chirildi. Shundan keyin har bir elatda qishloq har bir elatda yangi maktab tashkil etish shu darajada avj olib ketdiki, tuman, qishloqlaro sho'ro faollari bu masalaga birinchi darajali vazifa deb qaray boshladilar. Yangi sho'ro maktabida bolalar o'rganish uchun nihoyat qiyin bo'lgan eski arab alifbosidan voz kechish kerak edi. Hukumat 1927-yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tish yuzasidan butun-ittifoq Markaziy Qo'mitasi tashkil etdi, yangi alifboga ko'chish muhlatini 1930-yil 7-noyabr kuni deb belgilandi. Qizil inqilob o'z yo'lidagi to'siq, has cho'plarni ayovsiz yengib tashlash o'z yo'lida

¹ Ниёзий Қ. Ҳаёт мактаби. –Тошкент: "Фан", 1970, –Б. 44

shahdam qadam tashlashni talab etardi. Bolalarning yangi lotin alifbosida savod chiqarishlari bor yo'g'i 10 yilga davom etdi. – 1940-yil 8 may kundan o'zbek yozuvini rus grafikasi asosidagi harflarga ko'chirish to'g'risida yangi qonun qabul qilinishi bilan maktab maorif ishlari yana jonlanib ketdi. Maktab maorif ishini rivojlantirish umumxalq vazifasi darajasiga ko'tarildi. Bularning hammasi hukumatning xalq maorifi iqtisodini ko'tarish yuzasidan olib borilgan, islohotlarining samarasi edi.

Shovotda Aliev, Masharif Rizaev, Monoqda Sobir Yoqubov, Qo'shnazar Nurmatov, Bo'yrachida Sobir G'afuriy, Ochil Jumaniyozov, Oq Machit qishlog'ida Iskandar oqsoqolning joyida Sobir G'afuriylar "Inqilob" maktabini tashkil etdilar. Mahalliy muallimlar safini To'ra Niyozov, Shermat Hayitboev, Pirnafas Ibodullayev, Omon Eshjanovlar to'lg'azdilar, yangi maktablarda arab alifbosida ta'lim berilar, ba'zi toq va juft sinflar baravariga qo'shib o'qitilar, bo'r, yozgich, taxta yetishmasligidan suvakesak, dudlantirilgan taxtalardan ham foydalanar edilar. Maktablar tashkil qilish shu daraja avj olib ketdiki, hatto 15-30 oila birlashgan elatda ham amal-taqal qilib maktab tashkil topar edi. Polvon Ollaberganov 1930-yildan maorif sho'basini boshqara boshladi. Maktablarda ta'minot ishlari yo'qdan bor, o'quv qurollari yetishmas, qishda pechlarga o'tin yoqilmas, qog'oz, daftar ta'minoti ham og'ir ahvolda edi. -Savodsiz mamlakatda sostializm qurib bo'lmaydi, - sho'rolar shu asosda mahkam ish tutar edilar. "Xorazm okrug sovetlarining 1934 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan s'yezdi savodsizlik omma ishiga to'siq bo'layotganini ochiq oydin tan oldi. Saylangan qishloq sovetlari kengashlari raislarining 76,3 % savodsiz, qolganlari chalamullo deyiladi. Shuning uchun okrug sovetining s'yezdi savodsizlik va chala savodsizlikni kun tartibiga kundalang qilib qo'ydi, yangi o'quv yilidan yetti yillik majburiy ta'limga o'tish, yaqin yillar ichida savodsizlikni butkul tugatish haqida qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra, tezda qishloq kengashlari raislarini faollarini o'qitish uchun maxsus kurslar ochildi. Chunki okrug ijroiya komiteti Prezidumi xalqning savodi masalasida Shovot tumanida ahvol nechog'lik og'ir ekanini

misollar ko'rsatib bergandi. Chunonchi, Qiyot qishlog'i kengashida o'tgan bir yilda besh rais, 1934 yilda 3 rais savodsizligi tufayli o'z vazifasidan chetlashtirilgan¹. Tez-tez rahbar almashishi esa ijtimoiy siyosiy madaniy ishlarga katta ziyon yetkazdi.

Oradan yana bir yil o'tib tuman firqa qo'mitasi byuro a'zolari shu masalaga yana qaytdilar. Xalq ta'limi tizimida muayyan yutuqlar bilan hali nuqsonlar ham mavjud ekanligi oshkora bayon etildi. Ko'raklar, Uyrat, Xitoy, Arvik qishloqlaridagi maktablarga ba'zi ilm tolibu-tolibalari ikki yarim- uch kilometrdan qatnayotganlari afsus bilan qayd etildi. Xitoy qishlog'idagi "Traktor", Arvik qishlog'idagi Arvik boshlang'ich maktablari eshik, derazalari durust ta'mirlanmagan, sovuq shamol ufurib turadi, tozalik qoniqarsiz ahvolga tushib qolgan.

Tuman markazi va qishloqlarda rus, tatar, boshqird turk millati vakillari yoshlar va kechki savod maktablarida muallimlik qilar edilar. Xorazm okrug Sovetlari Qarori yetti yashardan yetmish yashargacha aholini maktab partalariga jam qilgandi.

1936 yili viloyat Fuqaro qo'mitasi byuro yig'ilishida tuman xalq ta'limi tizimidagi ahvol va oldida turgan vazifalarga yana bir chuqur nazar tashlandi. Kelgusi o'quv yilida boshlang'ich maktablarni 41 taga, unda ta'lim-tarbiya oluvchi ilm tolibu, tolibalari sonini 3450 nafarga, to'liqsiz o'rta maktablar sonini 10 taga undagi o'quvchilar soni 461 nafarga yetkazish vazifa qilib belgilandi.

Byuro yig'ilishi maktabgacha tarbiya muassasalari o'qishxona, kino xizmati, sog'liqni saqlash tizimlari ishini ham muhokama qilib, tegishli qarorlar qabul qildi. Unga ko'ra bolalar bog'cha-yaslilari kutubxonalar 15 taga, klublar 5 taga, choyxonalarini 20 taga yetkazish, bir dehqonlar uyi, bir joyda kino ustanovka, 2 joyda ko'chma kino xizmati tashkil etish, Monoq uchastkasida vrachlik, Bo'yrachi uchastkasida feldsherlik punkti tashkil qilish qat'iy vazifa qilib belgilangandi.

Xalq ta'limi, ma'naviyat ma'rifat sog'liqni saqlash tarmoqlarida jonlanish

¹ Хоразм вилояти партия комитети архиви. 1934-1949 йиллар

yuzaga keldi. Xalq ta'limida endi yetti yillik majburiy ta'lim hamma yerda kuchga kirib mehnatkashlar farzandlari maktablarga to'la tortilgandi. Muallimlar esa o'z shogirdlariga fan sirlarini qunt e'tibor bilan o'rgatar edilar. Kunduzgi bayramlar maktablardan tashqari kechki savodsizlikni tugatish, chala savodsizlikni bitirish kurslari ham ish olib borar ediki, ma'naviyat ma'rifat ishi sezilarli olg'a qadam tashlay boshladi.

Tuman firqa qo'mitasining 1939 yil 2 yanvar kungi byuro yig'ilishida kadrlar masalasi ko'rib chiqildi.

Urushdan avvalgi yillarda yoshlar uyushqoqligi cho'qqi nuqtalarga ko'tarilib, ularga Yo'ldosh Mahmudov sarkorlik qilar, Vafo Masharipov, Bozorboy Matyoqubov, Rahima Ahmedovalar byuro a'zolari hisoblanar edilar. Kamol Magdiev Strelkov nomli o'rta maktab direktori, Tafik Shigabuddinov omonat kassa mudiri, Yusuf Bekchanov xalq deputatlari tuman Kengashi raisligiga tayinlangandi.

Qishloq do'konlari to'lishib kutubxonalar ishi izga tushdi. Maktablar yetti yillik majburiy ta'limga ko'chdi.

II-BOB. SHOVOT TUMANI IKKINCHI JAHON URUSHI VA URUSHDAN KEYINGI YILLARDA (1941-1991 yy.)

2.1. Mehnatkashlarning ikkinchi jahon urushi davridagi fidokorligi va shovotlik jangchilarning frontdagi jasorati

1939 yil 1 sentyabrda ikkinchi jahon urushi boshlandi. Bu davrda mamlakatdagi barcha mehnatkash aholi qatorida shovotliklar qishloq xo'jaligini rivojlantirish, kanallar va ariqlar qazish kabi yaratuvchanlik ishlari bilan band edilar. Ammo ma'shum urushning sadolari kundan– kunga daxshatli eshitila borardi. Shovotliklar ham harbiy xizmatga chaqirilib, frontga safarbar etilishini bilardilar. Shu bilan bir qatorda hali bu katta urushning boshlanishi emas, balki uning aks–sadosi edi. Fashistlar sho'rolar yurtiga hujum boshlanishi natijasida 4 yil

davom etgan qirg'inbarot urush boshlandi va unda xorazmlik yigitlar qatorida shovotliklar ham frontga safarbar etildilar. Xalq xo'jaligi harbiy izga tushirila boshlandi. Bunday vaziyatda vatanparvar xorazmliklar ixtiyoriy ravishda frontga ketish haqida arizalar topshirdilar. Urushga safarbarlik boshlanishi bilan xo'jalik sohasida kadrlar muammosi ko'ndalang bo'lib qoldi. Shunday vaziyatda xo'tin-qizlar sanoat korxonalariga jalb etildi. Tuman MTSida 164 nafar ayol traktor haydashni o'rganib frontga ketgan mehanik-taktorchilarni o'rinlarini egalladilar.¹ Urush yillarida ham viloyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilik bo'lib qolavergan. Urush yillarida Xorazmdan frontga 67300 nafar kishi jo'natilgan. Shulardan Shovot tumanidan qatnashgan 1641 tasining nomi Xotira kitobida qayd etilgan.²

Urush yillarida Shovot tumanidan ham o'z vatani uchun kurashuvchi farzandlar janggohga otlandilar. Ma'lumotlarda keltirilishicha tarixchi Nurmat Rajabovning "Shovotliklarning faryodi va jasorati" nomli asarida Shovot tumanidan jami 634 kishi balki undan ham ko'proq urushda qatnashganlar nomini qayd etadi. Bedarak yo'qolganlar ham soni aniq emas.

Urush barcha joylarni larzaga keltirgani kabi tumanga ham ta'sirini ko'rsatdi. Barcha sohalar faqat urush uchun yo'naltirildi. Bundan tashqari, dastlabki oylardanoq ro'znoma, gazeta va jurnallarda mudofaachilarni ruhlantirish uchun ularni moddiy va ruhiy jihatdan qo'llab quvvatladilar. Tarixchi Nurmat Rajabovning "Shovotliklarning faryodi va jasorati" nomli asarida urush jarayonida tuman ahvoli, Shovot tumanidan urush frontlarida qatashganlar jasoratlari, tuman mehnatkashlari va fuqorolari tomonidan qilingan yordam hayriya ishlari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Urushdan keyingi yillarda Xorazmda adir va partov yerlarni o'zlashtirish borasida katta ishlar qilindi. Chunki bunday yerlar paxtachilikni o'stirish uchun zarur edi va buning uchun avvalo, irrigatsiya va melioratsiya sohasini taraqqiy

¹ Хоразм тарихи. Муаллифлар жамоаси. –Урганч: “Хоразм”,1997, –Б. 139

² Хотира китоби. 2-кисм. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1990, –Б. 4-71

qildirish talab qilinardi. Natijada gidrotexnik inshootlar ta'mirlandi, yangi kollektor va drenaj tarmoqlari qurilishi jadallashdi.

Mudofaa fondini mustahkamlash haqida dastlabki xabarlar mash'um urush boshlangan dastlabki oylardanoq ro'znomalar sahifalarida ko'zga tashlanib qoladi. Viloyat ro'znomasining 1941 yil 31-avgust sonida quyidagi xabarni o'qish mumkin:

“1-Shovot MTS ning bosh hisobchisi Qarabanov 4 ming so'mlik zayom obligatsiyasini Vatan mudofaa fondiga topshirish bilan har oyda yuz so'm naqd pul bermoqda. Shovotqal'a qishloq Sovetidagi Stalin nomli kolxozning bosh hisobchisi Mahmud Safoev ham 5 ming so'mlik zayom obligatsiyani, rayon partiya ko'mitasi bosh kotibi G'iyosov 3000 so'mlik obligatsiyani naqd pulini berdilar. “Ittifoq” artelining jamoasi 18 ming so'mlik zayom obligatsiyani Vatan mudofaa fondiga topshirdilar¹.

Shovot rayon Ijtimoiyat qishloq sovetidagi “Qizil bayroq” kolxozida yer haydayotgan o'rtoq Abdrim Nurmatov boshliq traktor brigadasining traktorchilar tomonidan Stalingrad himoyachilarining yangi yil g'alabalari sharafiga yangi yil sovg'asi tayyorlandi. 1000 dona tuxum, 5 kg guruch, saryog' hamda vinodan iborat ikki posilka tayyorlanib yuborildi. Front orqasi ham chinakam mehnat frontiga aylanib ketdi².

72 yashar Bekjon ota Do'stmatov ham 5 ming so'm pul berishga ahd etdi. Jangavor qurollar yasashga kolxoz raisi Tojim Polvonov 10 ming so'm pul berdi³.

Shovotliklar o'z g'allamiz bilan o'zimizni ta'minlaymiz shiorini qo'yib, Shovot rayonining kolxozlari topshirilgan paxta baravariga davlatdan olinadigan g'alladan voz kechishga qaror qildilar. Xitoy qishloq soveti topshirilgan paxta baravariga davlatdan sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida olinadigan g'alladan voz kechib front va mamlakatga 12 ming 400 kg g'allani iqtisod qilib berdilar. “Qizil O'zbekiston” kolxozida davlatdan olinishi lozim bo'lgan 28 ming 433 kg bug'doy

¹ Хоразм ҳақиқати. 1944, 1 декабрь.

² Хоразм ҳақиқати. 1944, 1 декабрь

³ Ўша жойда.

Qizil Armiya g'alla fondiga berishga qaror qilindi. "Qizil oy", "Qizil oktyabr" va Engels nomli kolxozlar davlatdan 4 oygacha g'alla olmaslikka qaror qildilar. "Qizil Sharq" kolxozi 9 tonna bug'doyni Vatan fondi mudofasiga berdi. Rayon mehnatkashlari o'rtasida o'zlarini o'zlari g'alla bilan ta'min etish uchun non kartochkalaridan ham voz kechish harakati kuchaydi.

Rayon sovetining deputati Beshmargan qishloq sovetining raisasi Bibijon Yusupova oilasi bo'yicha davlatdan olti oygacha non olishdan voz kechdi¹.

Shu o'rinda Shovot rayon Beshmargan qishlog'idagi "Qizil oktyabr" kolxozining a'zosi o'rtoq Matyoqub Qo'shnazarov Vatan urushida ishtirok qilayotgan o'g'li Rajab Matyoqubovdan xat oldi. Xatda:

"Qadrdon ota! Bizning g'alabamizni yanada tezlashtirish nemis fashist odamxo'rlarini batamom qirib tashlash uchun siz ham, aka-ukalarim ham, onam ham yangi yilda g'ayrat shijoat bilan unumli ishlashingiz kerak. Men sizlarning urush davriga xos fidokorlik bilan ishlashingizga chin ko'ngildan ishonaman. Kishilik qiyofasini yo'qotgan Gitlerchilarni qoldirmay qirib tashlaymiz. Biz frontda, sizlar kolxozchilarda qo'lni qo'lga berib "Vatan uchun fidokorona ishlaylik"²".

Sharifa ona oilasini ham yovuz urushning jizg'anak o'ti ayovsiz kuydira boshladi. Bobojondan oxirgi maktub 1943 yilda kelgan. Unda ham bor yo'g'i 3 jumla: - Men sog'-salomatman. Lekin, sizlardan xat oladigan joyda emasman. Omon bo'lsak, "g'alabadan keyin-ko'risharmiz"³". 1942 yilda urush bu oila eshigini yana qattiqroq qoqdi. 6 sentyabr kuni Madamin, 8 sentyabr kuni esa Safarboy ham jangga otlandi. Yangi uylangan Safarboyning yori chimildiqda armon bilan qolaverdi. Sharifa ona kichik farzandi Madamindan qonli jangohlarda yozilgan maktublar olib turardi. Uka akani izlab frontdan Moskvaga maktub yo'lladi. Qisqa vaqt ichida aniq va londa javob oldi:

"Sizning akangiz Bobojon Eshchanov I.I.Shitov rahbarligidagi partizanlar

¹ Хоразм ҳақиқати. 1944, 13 декабрь

² Хоразм ҳақиқати. 1942, 21 январ

³ Ражабов Н. Шовотликлар фарёди ва жасорати. — Урганч: "Хоразм", 1995, — Б. 32

qo'shilmasida harakat qilmoqda. U haqidagi aniq ma'lumotni urush tugagandan keyin olasiz.

K.E. Voroshilov.

Ukraina partizanlar qo'shilmasi shtabida jasur partizanni izlash tinimsiz davom etdi. Nihoyat, 1978 yil mart oyida Ukraina SSR partizanlar ishi komissiyasidan sal kengroq ma'lumot olindi. Unda aynan shunday jumlar yozilgandi:

— Jangchi partizan Bobojon Eshchanov I.I.Shitov otryadida dushmanning muhim ob'ektlarini portlatuvchi edi. 1943 yil 23 may kuni Jitomir oblasti Grodnista rayonidagi janglarning birida qahramonlarcha halok bo'ldi. Aniq ma'lumotlarga qaraganda, u Felisova qishlog'ida dafn etilgan. Bobojon Eshchanov dushmanning muhim ob'ektlarini yo'q qilish operastiyalarida ko'rsatgan mardlik va jasorati uchun SSSR Oliy Soveti Prezidumining 1944 yil 8 may farmoni bilan "Qizil yulduz" ordeni hamda Birinchi daraja Ulug' Vatan urushi partizani" medali bilan taqdirlangan!¹".

Stalingrad janglari g'alaba bilan adog'iga etdi. Lekin, mamlakatning katta qismi hali nemis fashist bosqinchilari iskanjasida to'lg'anib yotar edi. Oliy Bosh qo'mondon va Stalingrad frontining komondiri G.K.Jukovga nemislar endi Jon jahdlari bilan Moskva tomon yurish boshlashi aniq edi. Harbiy kuchlar ana shu yo'nalishlar tomon olg'a siljiy boshladi. Rahim Avazmurotov xizmat qilayotgan o'qchi polk jangchilari Kiev shahri yaqinida mudofaada turibdilar. Ertami indin ikki qarama-qarshi kuchning bir-biriga hamla qilishi ravshan.

Qo'qqisdan hujumga komanda berildi. Tinch oqar Dnepr daryosi bir zumda qayiqalar, sol va taxta o'tgichlar bilan qoplandi. Dushman ham xuddi shu paytni kutayotgan edi. Daryoning muzli suvida narigi qirg'oq sari pulemyotni milqitib borayotgan Rahimning ham endi orqaga qaytishdan o'zga chorasi qolmagan edi. U qayrilib orqasiga boqar ekan, o'z quroldosh do'stlarining daryo tubiga bor qurol

¹Уша асап. — Б. 34.

aslahasi, o'q dorisi bilan cho'kib ketganini ko'rib achindi. O'sha kuni bag'ri keng Dnepr daryosidan suv emas, askarlarimizning issiq qonlari oqib turdi. Qayta hujum muqarrar edi. Bu dam ham etib keldi. Rahim ham pulemyotini yog'ochlardan yasalgan qayiq ustiga qo'yib dushman egallab olgan qirg'oq sari suzib ketdi. Daryoda jangchilar barcha o'q otish quollaridan merganlarcha foydalanayotgani uchun dushman o'z inidan bosh ko'tara olmay qoldi. Dneprning narigi sohilida urra sadolari yangrashi bilan "maksim" ham tilga kirdi. Lekin dushman merganining o'qi uni vaqtincha safdan chetlab qo'ydi.

Rota komandiri jangchilarga "Olg'a" komandasini bergan edi. Rahim Avezmuratov ham pulemyotini qo'lida tayyor ushlagancha yugurib ketdi. Olg'a intilib u uzoq borolmadi. Oyog'idan qattiq yaralangan ekan. Ko'zini ochib qarasa tepasida do'stlari emas, oq xalatdagi kishilar turar edilar. Rahim Avazmuratov davolanib gospitaldan chiqqanda qizil askarlarning old qismi Berlin devorlarini nishonga olar edi. Pulemyot bilan u yana olg'a intildi. Suronli janglarning o'chmas xotirasi sifatida uning ko'ksida "Jasurligi uchun", "Jangovor xizmatlari uchun", jangovor "Shuhrat" ordenining butun shodasi yarqirab turar edi¹.

1942 yilning 19 iyun kuni ko'ngillar safida frontga kuzatilayotgan Vatan himoyachilari qatori Yunus Odilov ham tik, qomot, qaddi g'oz turar edi. Oradan oylar o'tib ketdi. Yosh himoyachilar qatorida u Pugachyov, Saratov shaharlari yaqinida 82 millimetr kolibirdagi minomyotdan o'q uzish sirlarini mukammal egallab komandirlar nazariga tushdi. Urush degan ofat har bir himoyachi kabi Yunusni ham o'z domiga chorlagani-chorlagan edi.

Qism Stalingrad sari 30 chaqirimlab olg'a siljidi. Yunus janglarda o'ziga ishonib topshirilgan jangavor topshiriqlarni oxiriga yetkazar, u boshqalarga namuna bo'la bordi. Janglar afsonaviy qahramon shahar Stalingrad sari surilib endi Kolpakov sovxozi, Sopilovka qishlog'i sarhadlarida davom etardi. 297 gvardiyachi o'qchi polkning to'pchisi Yunus Odilov kundan kunga jangdan jangga toblanib bordi. U rus quoldoshlari Aleksandrov, Puzanov, Xutov, Kerpellar bilan og'ir

¹ Ражабов Н.. Шовотликлар фарёди ва жасорати. -Урганч: Хоразм, 1995, –Б. 45

daqiqalarda mardlarga turib chidab berar edi. U 1943 yilning fevral oyida janglarda ko'rsatgan jasorati evaziga "Jasurligi uchun medali va katta serjant harbiy unvoniga sazovor bo'ldi. G'olib quroldosh to'pchi katta serjant Yunus Odilovni unutmadi. Germaniya ustidan qozonilgan Buyuk g'alabaning shonli 40 yilligi tantanalaridan sal oldinroq g'olib jangchi nomiga Moskvaga taklifnoma keldi. U ikkinchi bor g'olib jangchilar qatori Qizil maydondan saf tortib o'tdi.

Fashizmga qarshi olib borilgan qahatli urush Shovotliklarga juda qimmatga tushdi. Shovot xalqining Ulug' Vatan urushi davrida ko'rsatgan mislsiz qahramonlik, jasoratlarini qog'oz, qalam bilan ifodalash qiyin. Xalqimiz xirmon hovuchidagi doni, katagidagi tovug'i tuxumi, issiq kiyimigacha g'anim dushman bilan jang qilayotgan askarlarga jo'natib turdi. Front etarli miqdorda qurol, o'q dori, harbiy texnika oldi. Har hujumda front xalq madadini his qilib turdi.

2.2. Tumanda tinch hayotni ta'minlash va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sa'y-harakatlar

Salkam besh yil davom qilgan urushning chang to'zonli yillari ortda qoldi. Vatan himoyasiga otlangan ko'ksi qalqon yigitlar o'z ona yurtlariga zafar bilan qaytdilar. Ular ko'kraklarida yaltillagan nishonlar urush davri jasoratlaridan namuna edi. Xalq ularni quchoq ochib bag'irlariga bosdi.

"1945 yil 5 avgust kuni tuman firqa ko'mitasining plenumi bo'lib, Yusufboy qal'alik Abdulla Yoqubov birinchi kotib qilib saylanadi.

Vayronaga aylangan qishloq xo'jaligini zudlik bilan qayta tiklab olish kerak edi. Bahor faslida bo'lib o'tgan byuro yig'ilishi 14500 gektarga urug' ekish, paxta 9000 gektar, kuzgi bug'doy 1900 gektar, arpa 390 gektar kartoshka 65 gektar, boshqa ekinlar 120 gektarga belgilandi. 10 sentnerdan paxta, arpa, 13 stentnerdan bug'doy, 5 stentnerdan jo'xori doni yetishtirish kerak edi. Shu masalalar yuzasidan tuman yer bo'limi boshlig'i Nishon Razzoqov, bosh hisobchi Polyanstev, firqa instruktori I.Salaev Yoshlar qo'mitasi birinchi kotibi Olim

Qutlimurodovlar so'zladilar. Ekinlar ekish, hosildorlikni oshirish bilan 160 gektar partov yerlar o'zlashtirish rejalandi.

Hayot asta-sekinlik bilan izga tushib borar edi. Xalqqa tibbiy xizmat ko'rsatish, yo'l ko'priklarni sozlash, ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talabi darajasiga ko'tarish masalalari qarab chiqilib shu tarmoqlar rahbarlari Enver Xaydarovich Murodxosilov, Matrasul Xudayberganov raykom kotibi Madyor Xudayberganovlarning hisobotlari eshitildi va shu tarmoqlarda ishni o'nglab olish yuzasidan tadbirlar belgilandi¹.

Urush tugagan yili 6300 tonna o'rniga 3690 tonna paxta yetishtirilib reja 61 foizga bajarildi, oradan yana bir yil o'tib, paxta xosildorligi 4,1 st o'rniga 6,5 st ga ko'tarildi. Jamoat chorvachiligida ham muayyan ko'tarilish yuzaga kelgandi. Qiyot qishlog'idagi "Komsomol" jamoa xo'jaligida 7 yilqidan 5 toychoq, 7 bosh sog'ish sig'irdan 7 bosh buzoq, 72 bosh ona qo'ydan 76 bosh qo'zi olingandi. "Qizil oktyabr", "Qizil kuch" K.Marks nomli, "Bolshevik" jamoa xo'jaliklari ham jamoat chorvachiligini tiklab olgandilar.

Hamma joyda rahbarning obro'yi baland edi. Shovotliklar temir yo'l, Toshsoqa, Shorlovuq, Shovot kanallari qazuvlarini ham hamjihat o'tkazardilar. Jamoa xo'jaliklarida hosildorlik, mehnat unumdorligi o'sa boshladi. Qang'li qishlog'idagi Oxunboboev, Qiyot qishlog'idagi Voroshilov, Shovotqal'a qishlog'idagi Kirov, Xitoy qishlog'idagi Stalin nomli, Leninobod qishlog'idagi U. Yusupov nomli jamoa xo'jaliklari boshqaruv raislari H.Jumaniyozov, A.Yoqubov, K.Raximov, O.Xidirov, B. Tog'onovlar to'kin-sochinlik sari qadam qo'ygan edilar. Boshqa jamoa xo'jaliklarida ham oylik maoshlar pul, oq un bilan to'xtovsiz to'lab boriladi. Xalq yuksak ishonch bildirib Baki Tog'onovni O'zbekiston oliy kengashiga deputat qilib sayladi.

Tinch ijodiy mehnat yillari keng ko'lamli qurilishlar to'liq faravonliklarni boshlab keldi. Shulardan biri Chorjo'y Qo'ng'iro't temir yo'li qurilishi edi.

SSSR Ministrlar Soveti 1947 yil 16 martda "Chorjo'y- Urganch-Qo'ng'iro't

¹ Хоразм вилоят партия комитети архиви. 1934-1949 йиллар

temiryo'lini qurish to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Xorazm mehnatkashlarining fidokorona mehnati tufayli temiryo'l asosiga tuproq uyish ishlari 55 kunda nihoyasiga yetkazildi. 1948 yil boshlaridan temir izlar yotqizila boshlandi.¹

“Xorazm haqiqati” ro'znomasi 1947 yil 31 avgust kungi sonida quyidagi so'zlar yozilgan edi: “29 avgust tush vaqti. Trassaning Shovot uchastkasida PO-2 aeroplani varaqlar tashlab o'tdi. Kolxozchi quruvchilar varaqni o'qishga kirishdilar. Chorjo'y Qo'ng'iro't temir yo'li qurilish trassasida ishlayotgan Leninobod qishloq sovetidagi “Ittifoq” kolxozi a'zosi o'rtoq Madrahim Bobojonov 26-avgust kuni 22 kubometr yer qazish ishlarini bajarib rejani 550 foizga yetkazib rekord qo'ydi. Trassa qahramoni M.Bobojonov o'zining oldingi rekordini bosib o'tib topshiriqni 600 % ga bajardi. Trassada yangidan yangi mehnat ilg'orlari yetishayotir. “Traktor” kolxozi vatanparvarlaridan Yo'ldosh Sariev, Sobir Safoev, Yo'ldosh Jumaniyozovlar har biri tuproq qazishni ming foizga yetkazib ilg'orlar qatoriga chiqdilar. Xalq chin ma'noda baxt yo'li deb atagan bepoyon yo'nalishda mardona mehnat hukmron edi. Bo'yrachi qishlog'idagilar yurtga temir yo'l tortib kelish fidokorlari sifatida ter to'kar edilar. Qang'li qishlog'i Bo'rloq elatidan Shermat Polvon, uning qizi Bibijonlar nomi trassa uzra uzoq uzoqlarga qanot qoqqandi. Qiyot qishlog'i mehnat faxriy Shermat ota Xolmatov esa o'sha kunlarni tubandagicha tasvir qiladi: - “Brigadada, yangi uylangan edim. El-elatni buyuk qurilishiga kuzatib qoldik. Ular bir oydan ziyodroq Xazorasp tumani kunbotar burjidan besh metr chuqur ko'lni zambar, ot arava bilan ko'mib o'tganlar. Rahim Otashev, Abdurahmon Nurillaev, Quronboy Davlatov, Yusuf Odamboev, Sharifa Asqarova, Rahima Hayitbaevalar quyoshning o'tli tig'larini nazar pisand qilmay temir yo'l izlariga tuproq tashiganlar.

O'sha kunlari qishloqqa eldoshlarimizning dovrugli mehnatlari haqida xabarlar kelib turarkan, nihoyat quvonar edik. O'zbekiston KP Markaziy komitetiga Xorazm oblast partiya komitetiga, Chorjo'y- Urganch temir yo'l

¹ Хоразм тарихи. II жилд. –Урганч: Хоразм, 1997, –Б. 166-167

qurilishi boshqarmasiga Shovot rayon kolxozchilari Chorjo'y – Urganch Qo'ng'iro't temir yo'lini qurib tugallash haqidagi ko'rsatmalarni tezroq bajarish uchun fidokorona mehnat qilib 209396 kubometr hajmdagi tuproq ko'tarish ishlarini muddatidan ilgari bajardilar. Ilg'orlar safida quyidagilar bor: Xitoy qishlog'i Stalin nomli kolxoz raisi O.Xidirov, Dzerjinsk nomli kolxoz raisi M.Jumaniyozov, "Ittifoq" kolxoz raisi S.Ro'ziboev, "Yangi kuch" kolxoz raisi Hayitov, Shovotqal'a qishlog'idan Kirov nomli kolxoz raisi M.Hakimov.

Shovot rayon partiya komiteti birinchi sekretari R.Yusupov, rayon ijroiya komiteti raisi R.Hamraev, siyosiy bo'lim boshlig'i Y.Bobojonov¹lar bu ishlarga bosh-qosh bo'lishdi.

Shovot rayonidagi Kirov nomli jamoa xo'jaligi ikki yil davomida 476 gektar paxta maydonining har gektaridan 17,5 stentner, "Hujum" jamoa xo'jaligi 105,3 gektar paxta maydonining har gektaridan 18,3 stentnerdan xirmon ko'tardi. 1938 yilda 110 gektar yerda dehqonchilik qilinmoqda Xo'jalikning Bibijon Bobojonova, Yoqutjon Nurmatovalar boshliq zvenolari 31 stentnerdan, Otamurod Dusmatov boshliq, brigada 18 gektar erning har gektaridan 23 stentnerdan, Kirov nomli jamoa xo'jaligining Karim Vaisov, Masharif Hakimov boshliq brigadalari paxtakorlari 20 gektar yerning har gektaridan 20 stentnerdan "Oq oltin" xirmoni kutardilar. "Qizil sharq" jamoa xo'jaligi hisobchisi Rajabboy Nurmatovlar Butun Ittifoq "Hurmat kitobi" ga yozildilar.

Yerlarning meliorativ holati nihoyat yomon, zax suv ko'p, oqar suv kam edi. Bu esa paxta, rizq ro'z, sabzavot meva etishtirishga jiddiy to'sqinliklar qilardi. El birlashib Bo'yrachi suv inshooti qurilishiga kirishdi, - Maqsad Shovot kanalini tuman kunchiqar burjidan to'sib suv sahnini ko'tarib berish edi. Buning uchun har kuni 17000 dona g'isht qo'yish, 350 arava ishlatish 222 odam ishlashini ta'minlash lozim. Qurilishga Unimboy rahbarlik qilardi. Inshoot xalq kuch g'ayrati bilan bir yilda amalga oshirildi va dalalarga obi hayot elta boshladi.

Paxta mustaqilligi uchun kurash hal qiluvchi pallaga ko'tarildi. Qator jamoa

¹ Хоразм ҳақиқати. 1947, 31 август.

xo'jaliklari 10-15 stentnerlik marradan oshib o'tgan bir pallada, ba'zilari 3-4 stentnerdan ko'tarila olmas edilar. Tuman yer bo'limi qishloq xo'jalik bo'limi ochildi. R.Yusupov, Sh.Hamroevlar ish jilovini qo'llarida mahkam ushlab, Toshsoqa kanali qurilishiga 800 odam, 50 arava safarbar qilgan. Xalq tun bo'yi qabul punktlariga paxta jo'natardi. Ijroqo'm raisi jangavor "Qizil Yulduz", jangavor xizmatlari uchun qizil orden medallar nishondori Sh.Hamraev xalq hamrohi, yetakchisiga aylangandi.

1956 yilda arman binokor me'morlari tuman markazida pishiq g'isht ishlab chiqarish zavodi qurilishiga bel bog'lab kirishdilar. Mahalliy sanoat kombinati direktori Quronboy Ahmedov, muovini Ochil Qurbonov, quruvchi binokorlar Gadyoz Nurjonov, Ali, Yo'ldosh ismli yigitlar g'isht zavodi qurilishida mehnat qildilar. Korxonada bir yildan keyin mahsulot bera boshladi.

Bu davrda tumanga Polvon Nazarov rahbarlik qilayotgan edi. U qator korxonalar, Yangiariq tumanida firqa qo'mitasi birinchi kotibi lavozimida ishlab, boy tajriba orttirgan, nihoyat talabchan rahbar edi. Paxtachilik cho'qqi sari yo'l oldi. Tumanda jamoa xo'jaliklari yiriklashib Qang'lidagi Oxunboboev, Stalinobodagi "Kommunizm" Chig'atoy qal'adagi Moskva, Ijtimoiyatdagi "Partiya XIX-se'zdi" xo'jaliklariga X.Jumaniyozov, E.Tillaev, Q.Dushamov, X.Abdullaev, Sh.Jumaniyozovlar raislik qilar edilar. Shovot uchastkasida Kirov va Stalin kolxozlarini K.Rahimov, O.Xidirov o'z jamoalarini mash'al qilib tanitgandilar. Beshmergan uchastkasida "Leningrad", "Leninizm" kolxozchilariga Y.Bobojonov, Bo'yrachidagi Chkalov nomli jamoa xo'jaligiga Olim Ro'zimatovlar yetakchilik qilib iqtisodiy, madaniy, yuksalish sari talpindilar.

Iqtisodiy madaniy yuksalishlar negizi qayerda?

1960 yillarga kelib sho'ro hukumatining xalq baxt-saodati, yurt faravonligi yo'lida ko'rsatgan jonbozliklari natijasida qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va xalq xo'jaligining boshqa tizimlarida yangi texnikalar paydo bo'ldi. Tuproq qazish ekskavatorlari butun umri kanal va kollektorlarda qazuv qazishdek og'ir va azobli mehnatdan halos etdi. Paxta terish mashinalari terimchi xotin qizlarga madadga

keldi. Jamoa xo'jaliklaridagi chorvachilik fermerlarida "Archa", "Tandem" markali sut sog'ish agregatlari paydo bo'ldi.

Qishloq xo'jalik xodimlari oldida yerlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilash vazifasi ko'ndalang turar edi. Tumanimizning qibla tarafidan Azerniy-Do'stlik kollektorining qazib o'tilishi zax suvlarni quyi tomon oqizib ketdi. 1960 yilda qurilishi boshlangan Ozerniy kollektorining 1 navbati boshlangan bo'lsa 1963 yilda 2-navbati ham ishga tushirildi. Natijada tashlandiq va partov yerlarning o'zlashtirilishiga, tuproq unumdorligini oshirishga hizmat qildi.¹ Jamoa xo'jaliklariga yetkazib berilayotgan madaniy,

ayniqsa fosforli o'g'itlar ko'proq ishlab chiqarila boshlandi. Ayniqsa, Shu davrdan qishloq xo'jaligini intensivlashtirishga kirishildi. Qishloq xo'jaligini butun choralar bilan rivoj toptirish, ximiyalashtirish davri boshlandi. Shu munosabat bilan 1967 yil 15 iyulda "Agrokimyota'minot" hissadorlik jamiyati tashkil topdi. Tumanda yerlarni kartalashtirish, posyolkalashtirish boshlandi. Bu tadbirlarning hammasi shubhasiz iqtisodiy va madaniy yuksalishlarga yo'l ochib, tadbirlardan oqilona foydalangan jamoa xo'jaliklarida paxta va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish salmog'i oshganidan oshib bordi.

Shovotqal'a qishlog'idagi Kirov, Xitoy qishlog'idagi "Partiya 22-se'zdi" jamoa xo'jaliklari (hozirgi O.Xidirov) ilg'orlar safida borar edilar. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish va madaniy qurilishlardagi ustunliklar uchun Kirov nomli jamoa xo'jaligi boshqaruv raisi Karim Rahimov shu xo'jalikning paxtachilik brigadasi boshlig'i Ovodon Do'stova, Sostiolistik mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Sal keyinroq sostiolistik mehnat qahramoni unvoniga Bo'yrachi qishlog'idagi Chkalov nomli jamoa xo'jaligi boshqaruvi raisi Zarif Rahmatov ham sazovor bo'ldi. Shu xo'jalikning ilg'or kompleks mexanizastiyalashgan brigadasi boshlig'i Po'lat Matkarimov, Mehnat shuhrati ordenlarining to'la nishondoriga aylandi.

¹ Худоев Б. Хаёт сўқмоқлари. –Урганч: "Хоразм", 2004, -Б. 37

Kolxoz qishlog'i yuksak iqtisodiy-madaniy xo'jaliklarga aylantirishda Ijtimoiyat qishlog'idagi "Partiya XIX-se'zdi" kolxozi (hozirgi Do'stlik jamoa xo'jalik) boshqaruvi raisi Qo'chqor Qurbonov ko'p hayru savob ishlarni amalga oshirdi. Kolxozda dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish yildan-yilga oshib borishi bilan 4 o'rinda zamonaviy madaniy posyolkalar tashkil topdi. Konserva zavodi, shisha zavodi, pishiq g'isht ishlab chiqarish zavodi kolxozga million million so'mlar daromad keltira boshladi.

Shovot tumanining yetakchi darg'alari haqida gap ketganda Beshmergan qishlog'ilik Ahmadjon Abdullaevning tashabbuskorlik va tajribakorligini chetlab direktor qilib tayinlangach, kartoshka yetishtira boshlandi. Kolxoz qishlog'i posyokalastirilib, zamonaviy shaharcha tusini oldi. Dehqonchilik unumdorligi oshdi.

1965 yil shovotliklar uchun juda omadli yillardan biri bo'ldi. Yilning yakuniga ko'ra tumanimiz paxtakorlari Respublikada birinchi bo'lib, paxtani mashinada terish va davlatga paxta sotish rejalarini bajarishga erishib, g'alabalarni qo'lga kiritdilar. Bunda tuman raykomining birinchi kotibi Xasanboy Matrasulovning ro'li katta. U iqtisod fanlari nomzodi va tuman iqtisodiy ko'rsatkichlarini yoddan biladigan qobiliyat egasi edi.

Davlat paxta mustaqilligi allaqachon amalga oshib 40 stentnerchi jamoa xo'jaliklari maydonga chiqqandi. Xalq mehnatiga yarasha haq, ma'naviy madad olib turardi. Jamoa xo'jaliklari xazinabonlari yillik hisobot yig'ilishlardan keyin pul tarqatar edilar. Iqtisodiy mustaqillik ta'minlanib turmush madaniyati sari yuz tutdi. Tumanda dehqonchilik, turmush, madaniyatini yuksaltirish uchun ommaviy safarbarlik boshlandi. Partov yerlarni o'zlashtirishga bel bog'landi. Bunday yerlar o'zlashtirish qo'shni Qo'shko'pir tumani chegaralaridan boshladi. Bir oqshomda Shovot-Qo'shko'pir qishloq-asfalt yo'li bo'yida ikki joyda gidromexanizatorlar shaharchasi paydo bo'ldiki, tun yarmida ham chiroqlar porlab turar, qudratli texnika o'chirib, qum barxanlari, tepaliklarda tig' sanchardi. Deyarli hamma jamoa xo'jaliklari asrlardan asrlarga tanlandiq yotgan ko'l va roshlar, yayroq

dalalarni tekislab hosilqaynar dalalarga aylantirar, cho'lquvarlik sharafli kasb kashf etgandi. Aholi turmush, sanitariya madaniyati endi, yangi o'zlashtirilgan yerlarda "Shovot", "Bo'ston" jamoa xo'jaliklari, bo'rdoqchilik korxonasi o'sha matonat bilan o'tgan yillardan nishonadir.

1969 yil tumanda qishning qattiq sovug'i va yozning salqin kelishi tufayli nafaqat chorvachilikda, paxtachilik uchun ham qiyinchilik tug'dirgan yil bo'ldi. Boisi shu sabab, g'ozga uchun ofat yovvoyi hasharotlar (katadrina) misli ko'rilmagan zarar keltirdi. Dehqonlar bu yilni "g'o'zapoya yili" deyishadi.

¹Ularning tarqalishi ommaviy tusda fosfor va organik o'ta zaharli himikatlarni

ko'plab ishlatishga olib keldi. O'sha yili odamlar sog'ligiga va tabiat muhitiga eng katta talofat keltirgan yillardan bo'ldi.

Keying yillarda tuman qishloq hududlarida oq tut va shotut kabi nodir navli daraxtlarni har bir xonadon uyi oldida ekish va payvandlash ishlari yo'lga qo'yildi.

1973 yildan Rahim Tohirov firqa qo'mitasi birinchi kotibi qilib saylandi. 1973- 1985 yillarda tuman rahbarligida Rahim Tohirov faoliyat yuritdi. 1977 yilda tuman markaziga tabiiy gaz keltirildi. U tuman markazidan kolxoz qishloqlari sari odimladi. Monoq uchastka shifoxonasi Butunittifoq musobaqasi g'olibi,-deb topildi. Sanoat dadil odimlar bilan olg'a siljidi, paxta tozalash zavodi, 99 avtokorxonona, bosmaxona tuman byudjetini yaxshilanishiga olib keldi. Ravon tekis yo'llarini uzaytirish, kengaytirishni reja asosida olib borildi. Bularning hammasi R.Tohirovga xalq ishonchining ro'yobi edi.

Ma'lumki, 1924 yildan keyin paxta tozalash zavodlari qoshida shirkatlar paydo bo'la boshladi.1961 yildan paxta tozalash va yetishtirish sanoati tezlikda rivojlandi. Shu paytgacha davrda Shovot tumanining "Bo'yrachi", "Shovot", "Monoq" paxta tozalash maskanlari Urganch zavodiga tegishli edi. 1966 yilda Shovot paxta tozalash zavodi qurib bitkazilib ishga tushdi.² Uning sexlariga yangi uskunalari o'rnatilib, viloyat korxonalarida ichida ilk zamonaviy zavod maqomini

¹ Тоҳиров Р. Мен сенингман. –Тошкент: "Турон замин зиё", 2017, –Б. 196

² Худайберганов М. Хоразм пaxта тозалаш саноати тарихи. –Тошкент: "Шарк", 2004, –Б. 66-67

oldi. Shu yilgi paxta hosilini “Monoq”, “Bo’yrachi” paxta tayyorlash maskanlari Shovot zavodi qaramog’ida bo’ldi. Zavodning birinchi rektori Masharif aka Quryozov edi. 1975 yilda zavodga Jumaniyoz Salayev direktor bo’lgan. 1978 yildan paxtani quritish ishlari tabiiy gaz bilan amalga oshiriladigan bo’ldi. Natijada ish unumdorligi oshib maxsulot sifati yanada yaxshilandi. Uning ishga tushirilishi o’lkadagi paxta tayyorlash ishini yengillashtirdi. 1979-1980-yillarda tumanlardagi paxta tozalash zavodlariga issiqxonalar qurildi. Zavod rahbarlari homiylikida bolalar bog’chasi, sport sog’lomlashtirish majmuasi qurib ishga tushirildi.

Q . Quronboyev ishlarni to’g’ri yo’lga qo’yish va qishloqni ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan salohiyatini oshirish maqsadida rahbarlikka tavsiya qilingan edi. Yangi rahbar o’z ishini xo’jalikni barcha yetakchi sohalari, jumladan, paxtachilik, chorvachilik, bog’dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishni ko’paytirish hisobiga qishoq va tuman aholisini bu mahsulotlarga bo’lgan talabini qondirish orqali xalq turmush farovonligini yaxshilashga qaratdi. Shuningdek, paxta va boshqa ekinlardan yuqori hosil olishning muhim shartlaridan biri yerga e’tiborni kuchaytirish, ekin maydonlarini kapital tekislash orqali yerlarni kengaytirish kerak edi. Q . Quronboyev dalalarda 8, 10, 12 gektarlik kartalar tashkil qilishni yo’lga qo’ydi. Natijada barcha irrigatsiya va melioratsiya shahobchalari birin ketin tartibga keltirila boshlandi. Tumanda asosan qishloq xo’jaligi sohasi ustun turadi. Bundan tashqari, raisning qurilish, qishloqlarga sanoatni olib kirish, xalq ehtiyojlarini qondirish va madaniyat masalalariga katta e’tibor berishga vaqt va imkoniyat yaratib berdi. Konserva zavodi va qishloq madaniyat saroyini qurilishlari bunga yaqqol misol bo’ladi.

1970-1980 yillarda Sh. Rashidovning tashabbusi bilan qishloqlarda hukumat qarori asosida 29 joyda eski ovullarni tugatish hisobiga yangi posyolkalarni barpo qilish, eskilarini yanada kengaytirish ko’zda tutilgan edi. Natijada dehqonlar yerlariga yaqin joylarda yangi posyolkalar barpo qilindi.¹

1973 yil qishloq xo’jaligi uchun nihoyatda og’ir keldi. Shu yil 26 sentabrda

¹ Тоҳиров Р.. Дўст хақида сўз. –Тошкент: “Мухаррир”, 2013, –Б. 21

barcha ekinlarni sovuq urib ketdi. Biroq, shunga qaramasdan 1974-1975 yillarda Shovot tumani va xo'jalikda hamma sohalarda ijobiy natijalarga erishildi. Bularning barchasi qishloq ahli qalbiga rahbarning kirib borishi natijasi bo'lib, yangicha munosabatlar qaror topgandi. O'sha paytda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gazga bo'lgan talabini qondirish masalasi asosiy muammolardan biri edi. 1977 yilda Q. Quronboyev tumandagi "Partiya XIX s'yezdi" jamoa xo'jaligida konserva zavodi qurish g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oya tezda amalga oshirilib, 1979 yilning 19 iyun kuni Sh. Rashidov boshchiligida zavod ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Zavodning ish quvvati yiliga 300 ming dona shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan edi. Bu zavod qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan birinchi zavodlardan biri edi.¹

Sharof Rashidov Shovot tumaniga bir necha marta tashrif buyurgan. Uning har bir kelishida tumanda yangi bir inshootlarning ochilishiga to'g'ri kelgan. Huddi shunday uchrashuvlardan biri 1983 yil oktabr oyida tumandagi Shovot temiryo'l stansiyasida Urganch va Toshhovuz shaharlarini bog'laydigan katta temiryo'l ustidan o'tadigan ko'priknig ochilish marosimida ham qatnashdi.²

Saksoninchi yillar oxirlariga kelib sho'ro xukumati tizimlaridagi inqirozlar yana yaqqol ko'rina boshladi. Kolxozlar-jamoa xo'jaligida ish yuritish daromad qilish yildan yilga emas oydan oyga mushkullashib borar edi. Yil yakunida dabdabali raqamlar qayd qilinib hamma tarmoqlar tekis rivoj topayotgani haqida zo'r berib ma'ruza qilgan jamoa xo'jaliklari boshqaruvi raislari hisobotning daromad foyda qismiga kelganda tillari tutilib qolar edilar. Sabab qo'shib yozish, pora uzatishlar edi. Qishloq xo'jaligida ish yuritishning boshqa usuli topilmasa hayot boshi berk ko'chaga kirib qolishi hech kimga sir emas edi. O'zbekiston hukumati qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda oila qudrati asosida ish yuritish haqida maxsus qaror qabul qildi.

Oila pudrati bu xususiy mulk sari tashlangan qadam edi. Qishloqda yashayotgan bir oila o'z ishchi kuchlari soni kuchiga yarasha ikki, uch, gektar

¹ P. To'xirov. D'ust haqida s'uz. –Toshkent: "Muxarrir", 2013, –B. 27

² P. To'xirov. Olishiv va foiliblik nasidasi. – Toshkent: "Muxarrir", 2013, –B. 8

balki undan ham ko'proq yer olib dehqonchilik mahsulotini jamoa xo'jaligiga sotadi. Rejada belgilangan mahsulot uchun oy sayin mehnat haqi olsa rejani oshirgani ma'lum qismi o'ziniki bo'lar edi. Oradan yana to'rt yil o'tdi, tuman jamoa xo'jaliklarida oila pudratiga yer olib, paxta sholi sabzavot poliz meva yetishtirayotganlar soni ancha ortdi. Dastlabki quvonarli natijalar ko'zga tashlandi. Saksoninchi yillar o'rtalarida 56 foiz dehqon oila pudrati asosida ish

yuritar edi. Aholi chorva bosh sonlari ham orta bordi.

1985 yilga kelib Shovot va unga qo'shni Qo'shko'pir tumanida "Sholi ishi" bo'yicha taftish boshlanib ketgan edi. Bu davrda respublikada gdlyanchilar guruhi izg'ib yurardi. Shovot tumanida sholi ishi 9 yil davom etdi. ¹ Bu ish natijasida ham huddi "paxta ishi" kabi ayblovlar qo'yildi.

Xullas, tuman iqtisodiy ahvoli respublikaning boshqa hududlaridagi kabi edi.

1950-1960 yillardagi eng dolzarb muammolardan biri yangi maktab binolarini qurish, ularni moddiy bazasini mustahkamlash, mavjud muallimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirishdan iborat edi. Shovot tumanida shu yillari maktab-internatlar va o'rta maktab binolari ochildi. 1965-1985 yillarda ilmiy texnika taraqqiyoti xalq maorifini barcha tarmoqlari oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu yillarda maktablarda tabiiy va gumanitar fanlardan chuqurlashtirilgan bilim berishni yo'lga qo'yilganligi maorif hayotidagi eng katta voqea bo'ldi. Xususan Shovotda Al-Xorazmiy nomli litsey matematika fanidan chuqurlashtirilgan bilim dargohi faoliyat yurita boshladi. 70-80 yillarda yana bir muhim yangilik viloyat maktablarining beevosita ishlab chiqarish bilan aloqasi mustahkamlandi. Mehnat ta'limini alohida fan sifatida o'qitishga ahamiyat berildi. shuningdek, o'sha yillarda Xorazm viloyatida maktabgacha tarbiya muassasalariga ham e'tibor kuchaydi. Qishloqlarda ko'pgina bo'g'cha yaslilar qurildi. 1976-1985 yillarda faqat Shovot tumanida 30 ga yaqin bog'cha –yaslilar foydalanishga topshirildi. Tumanda bolalarni bog'cha-yaslilar bilan taminlanish darajasi 35 % ga yetdi. 1974-1985

¹ Тоҳиров Р.. Эл-юрт кайғуси ёхуд шукроналик туйғуси. –Тошкент: "Турон замин зиё", 2015, –Б.11

yillar davomida tuman qishloqlaridagi jami 20 dan ortiq maktab yangidan qurilib ishga tushirildi. Shovot shaharchasidagi ikkita maktabning soni beshtaga yetdi. 80 yillarga kelib, Hunar-tehnika vazirligi tashkil etilib, yoshlarga kasb –hunar o’rgatishga e’tibor kuchaydi. O’sha davrga kelib tuman markazida ikkita 4 qavatli hunar- talim bilim dargohlari ishga tushirildi.

Madaniy oqartuv muassasalari- klub, kutubxona, madaniyat saroylari, kinoteatr, muzey, matbuot va boshqalar viloyat aholisining madaniy va ma’naviy yuksalishida alohida ahamiyatga ega. 70-80 yillar viloyatda madaniy-oqartuv muassasalari qurilishining nihoyatda avj olgan yillari bo’ldi. Xususan, tuman markazida 1974 yilda tumanlar ichida birinchi bo’lib, bunyod etilgan kutubxonaning ishga tushirilishi qishloqlarda kutubxonalarning ish faoliyatini yaxshilanishiga sabab bo’ldi. Tumandagi stadion qurilishi 1979 yilda qurilishi boshlanib 1980 yil, Moskvadagi Olimpiada o’yinlari arafasida tugatish rejalashtirilgan edi.

Komiljon Otaniyozov hayotligi davrida 1974 yilda Shovotda “Feruz” nomli ashula va raqs ansambli tuzdi va o’zidan keyin o’nlab shogirdlar qoldirdi. Bu ansambldan Otaboy Qurbonboyev va Qalandar baxshikabi ajoyib san’atkorlar yetishib chiqqan. Klub, madaniyat saroylarida badiiy to’garaklar ishlab turdi. Ulardan ba’zilari faxriy unvonlarga sazovor bo’lganlar. Shovot tumanidagi Qalandar baxshi Normatov boshliq “Avazxon” folklor-etnografik ansambli Respublika tanlovlarida g’olib bo’lgan.

Keyinchalik, O. Qurbonboyev va Sultonboy aka rahbarligida Q.Quronboyev o’z xo’jaligida, Ijtimoiyat qishlog’ida “Monoq gullari” nomli ashula va raqs, Xitoy qishlog’ida Xalq folklor ansambllari tashkil etilgan edi. 1982 yilda qishloqda katta san’at va madaniyat saroyi qurib bitkazildi.¹

Tumandagi istirohat va madaniyat 1974 yilda tashkil etilgan. Bu bog’ ikkinchi jahon urushida halok bo’lgan yurtdoshlarimiz xotirasiga bag’ishlab, urush

¹ P. Тоҳиров. Дўст хақида сўз. –Тошкент: “Мухаррир”, 2013, –Б. 32-33

tugaganining 35 yilligi munosabati bilan ochilgandi.¹ Shu davrda tuman tarixida birinchi marta qish paytlari ham ko'm-ko'k bo'lib turuvchi ninabargli daraxtlarni nafaqat bog'lar balki tashkilot muassasalar oldiga ham ekila boshlandi. Bu bog'da butunittifoq baxshilar tanlovi o'tkazildi. Unda Bola baxshining shogirdi, shovotlik Qalandar baxshi birinchi o'rinni oldi. Bu voqea Xorazm baxshichilik maktabini dovrug'ini ko'tardi. Hozirda bu bog' Komiljon Otaniyozov nomi bilan ataladi.

Xorazm mehnatkashlarining ma'naviy –madaniy saviyasini oshirishda mahalliy matbuot va nashrlarning xizmati katta. Xususan 1932 yildan boshlab nashr qilinayotgan “Shovot istiqboli” gazetasida yangiliklar va jarayonlar haqida ma'lumotlar berilib borgan. 70- yillarda viloyatning barcha shahar va qishloqlari radio va televizion eshittirishlardan to'la bahramand bo'ldilar. 1963 yildan Xorazm televizion markazi ishga tushirildi.

60- yillardan keyin qisqa davr mobaynida viloyatning barcha shahar va tuman markazlarida , jamoa xo'jaliklarida ko'plab yangi zamonaviy davolash muassasalari- shifoxonalar, ambulatoriya-poliklinikalar, felsher- akusherlik punktlari, tez yordam stansiyalari, dorixonalar va boshqalar foydalanishga topshirildi. Urush arafasida Xorazmda sanoqli shifoxonalar bo'lib, ularning ko'pchiligi moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. Keyingi yillarda qishloqlarda poliklinikalar qurilishi jadallashdi. Bundan tashqari sog'lomlashtirish va davolash joylarini barpo qilinishi va shunday markazlardan biri Shovot tumanida ham barpo qilindi. Xullas, meditsina sohasida ijobiy o'zgarishlar qilindi. 80- yillargacha barcha qishloqlarda moslashtirilga eski binolarda QVA- qishloq brachlik ambulatoriyalari joylashtitilib, o'rta malakali meditsina xodimlari ishlay boshladilar. Urush tugaganining 40 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va ularning oilalari uchunprofilaktika sanatoriy maqomiga ega bo'lgan birinchi kasalxona ishga tushirildi. 1986 yilga kelib “Shovot” sanatoriysi, jumladan Beshmergan, Bo'yurachi qishloqlarida ham sanatoriylar ochildiю

¹ Р. Тоҳиров. Мен сенингман. –Тошкент: “Турон замин зиё”, 2017, –Б. 233

2.3 Tumanning shaharcha va qishloqlari tarixidan

Yuqorida milliy chegaralanishdan keyin Shovot tumani tashkil qilinganligini aytgan edik. Quyida tumanda joylashgan 10 ta qishloq va 1 ta shaharcha haqida ma'lumotlar berilgan

BESHMERGAN. Qishloq nomi respublikamiz viloyat va tumanlarida keng tarqalgan bo'lib turkiy nomdir. Lekin qishloq nomi haqida xalq orasida voqea bir haqiqat ham mavjud.

Tahminan XIX asr boshlarida Bobojon ota ismli mo'ysafid chol yashab, uning Safo, O'rozali, Eltazar, Abdulla, Rajabboy ismli besh nafar o'g'li ham bo'lgan. Bobojon ota qarasaki, Achchiqko'ldagi o'rdak, qashg'aldoqlarning son-sanog'i yo'q, lekin ularni qanday qilib tuzoqqa ilintirmoq kerak? Shu haqda tinimsiz bosh qotirgan ota buning ham ilojini topdi. U ot yolidan parrandalar ko'ziga ko'rinmaydigan to'r to'qib, ularni ko'l sahniga ilib qo'ygan, duras-duras uchib kelgan qushlar ko'zga ko'rinmas tuzoqqa potta-potta ilinavergan. Ota ularni Gurlan, Urganch Xiva, Shovot dehqon bozorlarida pullab boy, badavlat bo'lgan. Ayni paytda uning besh nafar o'g'li ham ko'l va to'qaylardan baliq, yovvoyi chochqa, quyon, tustovuq ovlab oila iqtisodini boyitishga o'z hissalarini qo'shganlar. Besh ovchi og'a ini sharafiga Beshmergan deb nomlangan.

Beshmergan qishlog'ida butun islom olami sarvari Abu Yoqub ibn Ayyub bin al Xusain bin Kerolan al Hamadoniy hazratlari maqbarasi joylashgan. Ul hazrat hijriy 440 milodiy 1048 yilda Eronning Hamadoniy viloyatidagi Buzanjurd qishlog'ida tavallud topgan. 42 yoshida Erondan Turonga tabarruk safarini boshlaydi. Marv, Buxoro viloyatlari orqali Samarqandning G'atfor qishlog'iga joylashadi. U yerda to'rt nafar shogirdi Xasan Aldoqiy, Abdulla Barakodiy, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoniylarga to'qqiz oy mobaynida saboq berib,

yana yo'lga otlanadi. Qaytishda Buxoro shahrida eldoshimiz Abdul Qosim va Zamaxshariy bilan ham uchrashadi. Buzruk Xorazm sari yuzlanar ekan, o'n bir nafar shogirdi bilan Beshmergan qishlog'iga keladi va 1140 yilda 92 yoshida vafot etadi. Hazratning hoki qo'yilgan joy xalq oyog'i uzilmaydigan tabarruk sajdagoh. 1994 yilda hashar usuli bilan ta'mirlangan sajdagohda xonaqoh, ma'naviyat va ma'rifat markazi, muzey, ziyoratchilar uchun qo'yimgoh mavjud.

Qishloqning birinchi sho'rosi mulla Qilich "Oq masjid" qishlog'i bilan Beshmerganni ham boshqarar edi. Ammo ko'pga qolmay Beshmergan qishlog'i alohida shaklandi. 1930 yilda Yaxshim Cheka Saidov uyida birinchi maktab tashkil etilib, toshkentlik Tursunova yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi. 1930 yildan kolxozlashtirish jadal tus oldi. 1950 yillar o'rtalarida N.C.Xrushyevni "islohotlari" davrida Beshmergan Katqal'a qishlog'iga qo'shilib, Beshmergan qishlog'i deb atala boshlandi. Bo'yrachi ham uning qaramog'ida edi. 1979 yil 6 noyabrdan Beshmergan Qiyot qishlog'i bilan birlashtirildi. 1983 yilda kartoshkachilik davlat xo'jaligi tashkil topishi bilan "Yengilmas" qishlog'i yuzaga keldi. 1993 yildan yana Beshmergan nomi bilan atala boshlandi.

Qishloqda ikki joyda umumta'lim maktabida mehnatkashlar farzandlari talim-tarbiya oladilar. Qishloqda konserva zavodi bor, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash oromgohi 2006 yilgacha faoliyat ko'rsatadi. Yusuf Hamadoniy, Oxunbobo, Egizak bobo, Isomut Ota qo'yimgohlari bor. Ularda fashizmga qarshi urushda halok bo'lgan hamqishloqlar xotirasiga marmar lavhalar o'rnatilgan. Qishloqda Beshmergan va Yangiyo'l mahallalari mavjud.

BO'YRACHI. Qadimda qishloq aholisi ko'l va yaylovlarda yashagan ekan qamishlarni o'rib uylariga to'shaydigan chipta, bo'yralar to'qiganlar. Qishloq nomi ham shundan kelib chiqqan. Sho'ro inqilobidan keyin Matchon Xotamov qizil Oqsaqol, Qilich Po'latov kotib qilib saylandilar. Qishloq Soveti tashkil topishi bilan Ro'zimboy Qurbonov uning raisi qilib saylandi. 1924 yilda Sobir Gafuriy, Ochil Jumaniyozovlar birinchi maktab tashkil etdilar. Qoyali qishlog'ida ham sho'ro islohotlari jadal davom etar edi. Hozirgi Xitoy qishlog'i Ayritom elati ham

shu qishloq tizimida edi. 1930 yillar o'rtalaridan Xitoy qishlog'i tizimiga o'tdi qishloqda kolxozlashtirish, yangi maktablar tashkil etish sho'ro islohotlari jadallik bilan olib borildi. 1974 yilda Bo'yrachi suv inshooti qurildi.

Hozirda qishloq aholisi Bo'yrachi, Ostona, Oqko'l, Chirkinli, Eshvoy sarhadidagi Davdon mahallalarida yashab kelmoqdalar. Qishloq yoshlari 38,39-sonli umumta'lim maktablarida tahsil olib kelmoqdalar.

Qishloqdan Sotsialistik Mehnat Qahramoni Zarif Ramatov, Jangovar Shuhrat ordenlari to'la sohibi Rahim Avazmurodov, Mehnat Shuhrati ordeni sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan mehanizator Po'lat Matkarimovlar yetishib chiqqan. Bo'yrachiliklar O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov bilan nihoyatda faxrlanadilar. San'at chamanining sayroqi bulbuli, Xorazm san'atini xindu-afg'on, xitoy, Birma, Indoneziya, Yugoslaviya kabi mamlakatlarga dong'ini taratgan. "Xorazmnavo" filarmoniyasi, musiqa bilim yurti ona qishlog'idagi umumta'lim maktabi, madaniyat saroyi uning nomi bilan ataladi. "Xorazmnavo" filarmoniyasi kolxoz, qishloqdagi maktab, madaniyat saroyi oldida uning bronza byustlari o'rnatilgan. Uchastka shifoxonasi "Shovot" sihatgohi xalq xizmatida.

Qishloqda Oxunbobo, Bangilar, Qoralanbobo, Bibi Zuhra, O'ktamsabo, Soatqulbobo qo'yimgohi mavjud. Qoralanbobo qabristonida 1941-1945 yillarda urushda halok bo'lganlar qabriga marmar lavha o'rnatilgan. Qishloqda Bo'yrachi, Ostona, Oq ko'l mahallalari inoq yashab kelmoqdalar.

IJTIMOVIYAT. 1925 yilda Qatag'on, Chig'atoy qishloqlari qaror topdi. Hozirgi Qang'li qishlog'ining Bo'rloq, Cho'qli qishlog'ining Qatag'on elatlari ham shu qishloq tizimida edi. 1928 yilda ular birlashib, Ijtimoiyat qishloq Soveti deb atala boshlandi. Avval o'ngliklar, "Qo'shchi" uyushmalari keyin 1930 yildan jamoa xo'jaliklari tuzila boshlandi. Birinchi maktab 1925 yilda Qurvoq qishloqlik Safarboy Ro'zimatov tashkilotchiligida qaror topib, yoshlar ilm o'rgana boshladilar. Bo'rloq elati Qang'li qishlog'iga, To'qmang'it elati Cho'qli qishlog'iga o'tdi. 1940 yil 2- noyabrdan Shopo'lat, Avazmat qishloqlari birlashib

Ijtimoiyat qishlog'i deb atala boshlandi.

Ijtimoiyat sanoatlashgan qishloq konserva, shisha idishlar, chinni, g'isht ishlab chiqarish zavodlari mavjud. Qishloq aholisi hozirda Bo'zqal'a, Shop'olat, Beshchikir, Madaniyat, Tozayop, Qatag'on mahallalarida hayot kechiradilar. Madaniyat uyi, madaniyat saroyi ishlab turibdi. Bu el shoir va dramaturg Y.Ayyomiy, Boltaboy Baxshi O'razov, shoir Rozimuhammad kabilarni yetishtirgan makondir.

Qishloq farzandlarini 8,9, 11, 12,13- sonli umumtalim maktablari, Monoq maishiy xizmat kasb hunar kolleji filiali o'z bag'riga olgan. 9- son maktab yaqinida fashizmga qarshi urushda halok bo'lganlar xotirasiga yodgorlik o'rnatigan. Otamurodbobo, Nurazizbobo, Norimjonbobo, Horratavliyo, Shakarmomo qabristonlari mavjud.

KATQAL'A. Akademik Y.G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" nomli risolasida Abu Rayhon Beruniy yangi mingyillik XVII asr boshlanmasida ro'y bergan va Shohabbos qal'asini o'z domiga tortgan daxshatli degish guvohi bo'lganligi Xorazmshohlarning ulkan me'moriy koshonasi bir necha daqiqa ichida daryoga g'arq bo'lganini yozib qoldirgan. Ana shu qirg'inbaroot toshqin To'rtk'ol, Shohabbos qal'alarini butkul yuvib ketgach, A. Bahodirxon Amudaryo chap qirg'og'ida shu nomda qal'a barpo etishga ahd qildi. Katqal'a yillar o'tgani sayin go'zallashdi. Dehqonchilik, huarmandchilik rivoj topdi. 1913 yilda hokim Otabek o'z jiyani Tangribergan tomonidan o'ldirildi.

XX asrning 20 yillari ortalarida qishloq sovetlari tashkil topgunga qadar Kot uyezdi maqomida bo'lib, Monoq hokimligi Shovot bekligi ham uning tizimida edi, uni Ashirdom laqabli inson o'z mulozimlari bilan boshqarardi.

1925 yilda "Oq masjid", sal keyinroq Ko'raklar qishloqlari tuziladi. Fashizmga qarshi urushdan keyin Beshmergan qishlog'i deb atalib unga Bo'yrachi ham qo'shiladi, 1993 yildan Katqal'a nomi bilan atalib kelinmoqda. Qishloqda 5, 36, 45, 37- son umumtalim maktablari, sanoat kasb hunar kolleji filiali mavjud. M.Hudayberganov nomli 37-son maktab oldida uning byusti o'rnatilgan. Aholi 7 ta

mahallada yashaydi. Ular Yangi turmush, Oltinqal'a Navroz, Katqal'a, Botirlar, Hunarmand mahallalaridir. Qishloqda Jilovdorbob, G'oyibbob, Savabob, Yetti gumbazbob, Qozibob, Tangri shixbob, islom dinini yoyish uchun Kohna Urganchdan shu yerga kelgan Yusuf Xojabob, Yoqub xojabob qabristonlari mavjud. Katqal'a paxsa devorlari nurab ketgan.

QIYOT. Bu nom qadimiy turk qabilalaridan biri bo'lib, o'g'uzlar tarkibiga kiradi. VIII-X asrlarda ular Dashti Qipchoqda yashab chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Biz aytayotgan Qiyot qishlog'i esa qizil inqilobdan keyin tashkil topib, Shovot kanali o'ng sohili Gavdasha sarhadlari Gurlan tuman sarhadlarigacha cho'ziladi. 1920 yildan Sho'ro tartiblari xalq hayotiga shahd kira boshladi. 1925 yilda toshkentlik Burxonov, Gulchehra Burxonovalar, Abdulaxo'ja Yoqubov uyida birinchi maktab tashkil etdilar. Keyinroq Shermat Hayitboyev, Pirnafas Ibodullayev mahalliy ziyolilar bilan muallimlik qildilar. 1930 yildan kolxozlashtirish jadal rivojlandi. Qatag'onlik yillarida elning ne-ne kazoo kazolari "din peshvosisan, sho'ro hukumatiga shubhali odamsan, boy uyingda qarol saqlagansan, kolxozga qarshilik qilding" degan bahonalar bilan qatlu qatag'on qildilar.

Beshmergan qishlog'i ,Shovotqal'a qishlog'i ,Arab elatidagi "Madaniyat" jamoa xojaligi ham Qiyot qishlog'i tizimida edi. 1950 yillar boshlaridagi kolxozlarni yiriklashtirish davrida "Madaniyat" jamoa xojaligi Shovotqal'a qishlog'iga, 1983 yilda kartoshkachilik davlat xo'jaligi tashkil topishi bilan qishloqning Beshmergan uchastkasi "Yengilmas" qishlog'i bilan alohida tashkil topdi.

Qishloqda hozirda 31,32,34,40,47- son umumtalim maktablari,49 -sonli yosh fizik va matematiklar litseyida ta'lim-tarbiya olmoqdalar. 32- son umumtalim maktabi oldida Ittifoq xalq maorifi a'lochisi Rajabboy Bobojonov bronza byusti o'rnatilgan. Aholi Qiyot, Oydin, Qunduz, Idaliqal'a, Komiljon ota mahallalarida hayot kechiradilar. Qishloq madaniyat uyi, madaniyat saroyi mavjud. Qishloqda Qoralanbob, Ovutxo'jabob,Muqimsandbob, Mag'zim ibn Jabborbob, Said

Jabborbobo ziyoratgohlari mavjud.

QANG'LI. Qishloq turkiy qabilalar turkumidan bo'lib Respublika viloyat va tumanlarida ko'plab uchraydi. Uni kunchiqar tarafdin Ijtimoiyat qishlog'i, qibla tarafdin Shovot kanali, orqa va kunbotar tarafdin Turkmaniston Toshhovuz viloyati qishloqlari o'rab olgan. Aholi qadim-qadimdan dehqonchilik, chorvachilik, mayda hunarmandchilik, savdogarlik bilan shug'ullanadilar.

1920 yil Sho'ro inqilobi amal olishi bilan qang'liliklar o'nlik, qo'shchi uyushmalari, kommunalarga birlashma 1930 yilda qaldirg'och Fayzulla Xo'jayev nomli kolxozga birlashadilar. Uch yil mobaynida kolxozlashtirish tugallanib, o'n beshga yaqin kolxoz tashkil etiladi. Qishloq Sovetining raisi qilib Nurmat hoji keyin Hayitboy Matjonov saylandi. Qatag'onlik siyosati qishloqni ham chetlab o'tmadi. Muallim Quronboy Hayitov otib oldirildi. Qishloq faollari rahbarlari hayotiga suiqasdlar uyushtirildi, begunoh kishilar qatag'on qilindi, ko'plari surgun qilindi.

Qishloqdagi birinchi maktab 1926 yilda tashkil etilgan edi. Hozirda bu yerda 6,7,10 sonli umumta'lim maktablari faoliyat yuritadi. Monoq kasb hunar kolleji filiali bor. Aholi Ohunboboyev, Guliston, Qang'li, Qo'shko'pir mahallarida istoqomat qiladilar. Qang'li qishlog'i XX asr o'rtalarigacha Yabliqang'li nomi bilan yuritilib, 1950 yillar ikkinchi yarmidan Ijtimoiyat qishlog'i tizimiga o'tdi va 1960 yil o'rtalaridan Qang'li qishlog'i nomi bilan qayta tashkil etildi. Qishloqda Bo'rloqbobo Xorozeshonbobo qo'yimgoh sajdagohlari mavjud.

XITOIY. Qishloq tumanning yirik qishloqlaridan bo'lib, qibla tarafda Qoraqum ,orqa tomondan Bekyop kanali, kunchiqar tarafdin Bo'yrachi, Beshmergan, kunbotar tarafdin Chig'atoyqal'a qishlog'i bilan chegaralanadi.

Tarixdan ayonki, Qoraxitoylar Osiyo yerlarida hukmronlik qilganlar, qishloq nomi shundan kelib chiqqan degan tahminlar bor. Chunki bu nom respublikamizning boshqa viloyatlarida ham uchraydi.

O'tmishda xalq ayrim millatchi yovmutlar talon tarojliklarning o'z boshidan kechirgan. Saydoli elining mard yigiti Do'stchonbek ularga qarshi chiqib qurol

ushlab elni himoyalaydi. Sho'ro tuzumi amal olgach , 20 yillar o'rtalarida u Xitoy qishloq Soveti raisi lavozimini egalladi. 30 yillar o'rtalarigacha qishloqning Ayritom elati Qoyali qishlog'i tizimida edi, so'ng Xitoy qishlog'i tizimiga o'tdi. Xitoy qishloq tuman markaziga yaqin joylashgani uchun mehnatkashlar ancha yillargacha 1- son maktabida talim tabriya oladilar. Xitoy elatida 1927 yilda Ro'zmat bobo Javoqov joyi o'rnida Qiziloy Boshlang'ich maktabi tashkil topdi. 1930 yilda kolxozlashtirish ommaviy ravishda tus olib maktablar ham ko'paydi. Hozirda 22,23,24,28,30- sonly umumta'lim maktablarida ta'lim oladilar.22- son maktab oldida xalq maorifi a'lochisi Rahim Boltayev byusti o'rnatilgan.

Aholi Uzunko'l ,Qozoqqala, Ipakchi , Xitoy, To'qmang'it mahallalarida farovon hayot kechirmoqdalar. Qishloqda Lo'ppilboboda ikki joyda G'oyibboboda, Qumavliyo, Yilqichiboboda qabriston sajdagohlari bor. XVIII asrda qurilgan Kapkatrxona Qal'asi xonaqosi qarovsizlikdan yiqilib ketgan.

CHIG'ATOYQAL'A. Chig'atoy qadimiy turk qabilalaridan biridir. Qishloq o'z hayoti davomida urush bosqinlarga duchor bo'lgan. Ma'lumki ayrim millatchi yovmitlar Xiva xoni taxtiga doimo tahdid solib turganlar. Xivaga kelgan chor generali Galkiya el ulamolarini Qo'shkopir tumaniga to'playdi, ammo u yerga mulla Husayn bormagan. Bundan g'azablangan general uni dorga ostirdi. Asl sabab mulla Husaynning Junayidxonni uyiga chorlab, mehmon qilganligi edi. Sho'ro inqilobidan keyin, Qalandarko'r to'dalari qishloqning qibla tarafiga joylashib muallimlarga suiqasd uyushtirdilar. Ahmadjon Ibrohimovning bosmachilarga qarshi kurash shtabi qurolli askarlari Qalandarko'r to'dalariga qarshi kurashishga o'tlanib, 1930 yil 10 may kuni Darakliboboda qabristonida ularni tayyorlantirdi. Qalandarko'r, Boyjon shayx jasadi uch kun davomida tuman markazi ochiq maydonida "namuna" sifatida osilib turdi.

Qal'a Yusufboy Royat Dorichi Shag'alqal'a, Gudalayqal'a elatlarining o'z tizimiga olgan yirik qishloqlardan biri edi. Dorichida bir necha shaxslar Afg'onistondan tashib keltiradigan porox va boshqa portlovchi moddalar tufayli shu nomni olgan. Bekchon Sherjanov esa o'z ota bobolarining olov cho'g'i

bardoshli yulg'un, sazoq kabi quruq yog'ochlarni bir yerga to'plab portlovchi moddalar tayyorlanishi haqida aytib bergan. 1925 yilda oqsoqol mulla Yusufboy joylari sho'ro hisobiga olinib Qal'a Yusufboy qishlog'i yuzaga keldi va 1- maktab tashkil topdi. 1930 yillar o'rtalaridan Qal'a Yusufboy Leninobod qishloq soveti deb va mustaqillikdan keyin Chig'atoyqal'a fuqorolar yig'ini deb atala boshlandi.

Hozirda qishloqda Royat, Chig'atoyqal'a, Navro'z, Guliston, Bo'ston mahallalari mavjud. Bu yerda 4,20,21,44,48- umumta'lim maktablari bor. Qishloqda ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan hamqishloqlar xotirasiga yodgorlik, muzeylar tashkil etilgan. Go'zalbobo, Saidbobo, Shixi Jaloliddinbobo, Mirayimbobo, Sultonbuzrukboro, Sobirbobo, Ismoilota ziyoratgohlari mavjud.

CHO'QLI. Qadim qishloq Cho'qlining yoshini Avazxon dostonidan bilsak bo'ladi. Chingizxon Voyangan qal'asini butkul vayron etgandan keyin, u asta sekinlik bilan qad rostlay boshlaydi.

Qishloq nomi bilan bog'liq boshqa bir voqea ham xalq yodida saqlanib qolgan. Mulla Polvon ismli mo'ysafid tabarruk xaj safariga o'tlanadi. U ma'lum vaqtdan keyin boshiga arablarning tepasiga qizil mato tikilgan do'ppisini kiyib keladi. Cho'qli nomiga nisbat shundan berilgan.

1925 yilda Cho'qli qishloq soveti qaror topishi bilan Gujumboyni paxta tozalash zavodida birinchi maktab tashkil etilib yoshlarga savod o'rgatila boshlangan. 30 yillar o'rtalaridan To'qmang'it elati Ijtimoiyat qishlog'i tizimidan Cho'qli qishloq tizimiga o'tdi.

Cho'qli Monoq uchastkasi markazi bo'lgani bois, bu yerda tuman ichki sihlar bo'limi, paryacheyka, 2 -Shovot MTSi , shifoxona mavjud edi. Hozir uchastka shifoxonasi, paxta qabul qilish punkti, Monoq matlubot jamiyati, umumiy o'vqatlanish korxonasi, nonvoyxona, madaniyat uyi xalqqa beminnat xizmat qilmoqda. Qishloq aholisi Ogahiy, Monoq, To'qmang'it, mahallarida istiqomat qiladilar. Qishloq yoshlari 3,18,19- son umumta'lim maktablari, Monoq maishiy xizmat kasb-hunar kollejida ta'lim tarbiya olmoqdalar. Bu yerda Voyanganbobo qabristoni bo'lib, unda XI asrda da sharqona uslubda yaratilgan maqbara mavjud.

SHOVOTQAL'A. 1663 yilda Xiva xoni Abulg'oz Bahodirxon taxtni o'g'li Anushoxga qoldirib, o'zi yurt tarixini yaratishga kirishadi. Anushox rahbarligida Shoxobod kanali qazilib, uning chap sohilida shu nomad qal'a barpo qildirdi. Shovotqal'a qishlog'i nomi ham shundan. Qishloq aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik, mayda hunarmandchilik, savdo –sotiq bilan shug'ullangan. XX asr boshlarida Sho'ro inqilobi amal olishi bilan o'nliklar, qo'shchi uyushmalari, kommunalar paydo bolib 1925 yilda Shovotqal'a qishloq soveti, 1930 –yildan esa jamoa xo'jaliklari tuzilgan. 1950 yillar boshlarida jamoa xo'jaliklari yiriklashishi asnosida Qiyot qishlog'idagi "Madaniyat" jamoa xo'jaligi Shovotqal'a qishlog'i tizimiga o'tdi.

Qishloqdagi birinchi maktab ustalar mahallasidagi Karim Ziyovuddinov uyida 1926 yilda Masharif Sharipov tashkilotchilik, tashabbuskorligida qaror topdi. Sho'ro faollari yaqindan ko'makdosh bo'ldilar. Shulardan biri Karim Rahimov edi. U 1931 yildan "Bolshevik" jamoa xo'jaligi, 1940-46 yillarda SHovotqal'a qishloq soveti, 1950 yildan 1972 yilgacha Kirov nomli jamoa xo'jaligiga yetakchilik qildi. Xo'jalik paxta va boshqa qishloq xo'jalik, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish, turmush madaniyatini yuksaltirishda yuksak ko'rsatkichlarga erishdi.. xo'jalik boshlig'I K.Rahimov 1966 yilda paxta va pilladan yuqori hosil yetishtirgani bois Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. 1971 yildan Ovodon Do'sova ham paxtachilikni kompleks mehanizatsiyalash va paxtadan yuqori hosil yetishtirishga katta hissa qo'shgan uchun Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Beshinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetiga deputat qilib saylandi.

O'zbekiston hukumatining 1991 yildagi farmoniga binoan Shovot shahri tashkil topib qishloqning yuqori qismi, Tirtiqlar, Sholikor, Bo'yg'ozoq elatlari temir yo'l stansiya zonasi shahar tizimiga o'tdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yer va aholi yana qishloq tizimiga o'tdi.

Hozirda qishloq aholisi Qumyop,Asavey, Oq oltin, Arbob, Bo'zqala mahallalarida hayot kechirmoqdalar. Bu yerda 25,26,41,46,51-son umumta'lim

maktablari joylashgan. Qishloqda Sazoqbobo, Eshonbobo, Sochlibobo, Niyozsaidbobo qo'yimgohlari mavjud. Qishloqda madaniyat uyi, madaniyat saroyi bor. Shirkat xo'jaligi K.Rahimov nomi bilan atalib, xo'jalik ma'muriy binosi oldida unga bronza byust o'rnatilgan.

O'ZBEKISTON. 1920 yil qish chillasida tumanning shimoliy qismidan millatchi yovmutlarni surib tashlash maqsadida yo'l olgan Qizil inqilobchilar qishloqdan Mayliboy va Is'hoqboy ismli yigitlarni ham olib ketganlar. Umrida to'p, zambarak atalmish qirg'in quollarini hayollariga ham keltirmagan yigitlar otishmalar chog'ida ham zambaraklar yonidan ketmaganlar va shu yerda ajal topganlar.

Inqilobdan oldin esa vaziyat yana tahlikali edi. Millatchi yovmutlar qishloq aholisi mollari boshqa boyliklarini olib ketib, keyin qytarib beriladi, borib olinglar degan sohta bahona tarqaladi. Moltalab aholi qoraqum oshishi bilan ularni o'qqa tutganlar. Arvik elati bir kunda 62 nafar jasad olib kelib, issiq joyiga topshirganlar. Muhammad Rahimxon Feruz Nurjon Botirni Monoq hokimi qilib tayinlashiga ham aslida shu zo'ravonlik, bosqinlar sabab edi. N. Botir qum etagida ikki joyda qal'a qurib, a'vomni qattiq himoyalagan.

Sho'ro inqilobi amal olgach Nurjon Botir go'shasi tortib olinib, boy va dindorlardan to'plangan mol, boyliklar saqlanib tarqatiladigan markazga aylanadi. O'nlik, qo'shchi uyushmasi, kommuna, yerni birga ishlash shirkati va nihoyat 1925 yilda Arvik qishloq Soveti, 1929 yilda esa tumandagi qaldirg'och "Olg'a" jamoa xo'jaligi qaror topib, unga Polvon Matniyozov, keyin Shix ota Davlatov raislik qila boshlaydi. Nurjon Botir go'shasida pionerlar lageri tashkil topadi. Qishloq sho'rosi Otajon bola keyinroq Hayitboy Yoqubov sho'ro bo'lib ziyoli Sadulla Abdullayevlar 1926 yilda Arvik boshlang'ich maktabini tashkil qiladilar. 30-yillar o'rtalarida Qurvoq, Arvik qishloqlari birlashib 1940 yil oktabrdan Stalinobod qishloq soveti nomi bilan ataladi. 1953 yil Firqa Markazqo'mining Plenumida Stalin shaxsiga sig'inish oqibatlarini tugatish yuzasidan chiqargan qaroriga asosan O'zbekiston qishloq soveti deb yuritila boshlandi.

Hozir esa O'zbekiston qishloq fuqorolar yig'ini deb ataladi. Qishloq aholisi

Eshonqal'a, Arvik, Oqko'l, Do'stlik mahallalarida yashaydilar. Bu yerda 14,15,16,17,43- sonli umumta'lim maktablari va Monoq maishiy xizmat kasb hunar kolleji faoliyat yuritmoqda. Qishloq markazini buyuk turkman klassik shoiri Maxtumquli bronza haykali bezab turadi. O'tmishning yolg'iz yodgori Nurjon botirning oromjoy dahlizi va tashqi ayvoni saqlanib qolgan ulamolar Xaldabobo, Amatjon eshon, tabib usta ro'zim, shoir va dramaturg Nurmat Yaxshim el faxru g'ururi hisoblanadi. Qishloqda Ko'chatbobo, Xo'jalar, Xasaneshonbobo, Qurbonota, Xalfabobo qo'yimgohlari, Misikinbobo sajdagohi mavjud.

SHOVOT SHAHARCHASI. Shovot shaharchasi tashkil topishi 1976 yilning 30 mart kuni tuman markazi Shovotqal'a aholi punktini shahar tipidagi posyolka kategoriyasiga o'tkazish haqidagi O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi farmonidan boshlanadi. Shu yilning 29 may kuni posyolka sovetining birinchi tashkiliy sessiyasi bo'lib, Inoyat Salayev Shovot posyolka Soveti raisi, Saodatjon Abdullayeva kotibasi qilib saylandi. 1977 yil 3 mart kuni sessiyada Iskandar Xo'jayev Shovot posyolka Soveti raisi qilib saylandi. Nihoyat 1983 yil 7-fevral O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Shovot posyolkasini Shovot shahriga aylantirish yuzasidan 362-n sonli farmon chiqardi. Pirnafas Tojiyev xalq deputatlari Shovot shahar soveti ijroqo'mi raisi qilib saylandi. Shundan keyin bu lavozimda Otaxon Masharipov rais, S.Abdullayev, Sayilxon Iskandarovlar kotib bo'lib ishladilar. 1993 yildan Shovot shahri shaharchaga aylantirildi. 2003 yil fevral oyidan Ibodulla Boltayev Shovot fuqorolar yig'ini raisi lavozimini egalladi.

Paxta tozalash, don maxsulotlari, mashina traktor saroyi hissadorlik jamiyatlari, avtokorxonalar, Shovot matlubot jamiyati, umumiy ovqatlanish korxonalarini shahar sanoat savdo korxonalarini sanaladi. Yoshlar 1,2-son umumta'lim maktablari, Al Xorazmiy nomli 1-son yosh matematik va fiziklar litseyida ta'lim-tarbiya oladilar. Shaharcha markazida kinoteatr markaziy qiroatxona, bolalar kutubxonasi madaniyat uyi ishlab turibdi. Markaziy, bolalar va fashizmga qarshi urush faxriylari va ularning oila a'zolarining salomatliklarini mustahkamlovchi shifoxona ikki joyda poliklinika, tish davolash shifoxonalari, sanitariya epidemiologiya stansiya mavjud.

Shaharcha markazida fashizmga qarshi urushda halok bo'lgan hamyurtlar xotirasi temir yo'l stansiyasi zo'nasida baynalminal jangchilar xotira monument o'rnatilgan. Bolalar shifoxonasi oldida ona va bola haykali, 1-son umumta'lim o'rta maktabi oldida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Bekchan Qozoqov bronza byusti bor. Saidmaksumpokbobo, Shahidlikbobo, Arabbobo avliyo qo'yimgohlari xalq sajdagohiga aylangan. Shaharchada Do'stlik, Shovot, Yangiobod, Navro'z, Paxtakor, Madaniyat, Turkiston, K.Rahimov mahallalari mavjud.

Tumandagi shaharcha va qishloqlarning tashkil topishi va nomlanishi Xorazm viloyati davlat arxivi yetakchi mutaxassisi Jabborbergan Rahmonovning Shovot tumanining ma'muriy chegaralanishi, aholisi, yer-suv resurslari, dastlabki yillar qiyinchiliklari haqidagi ma'lumotlari asosida yozilgan.

III-BOB. SHOVOT TUMANINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI TARAQQIYOTI (1991-2010 yy.)

3.1 Mustaqillik sharoitida tumanda sanoat va agrar sohani rivojlantirish chora-tadbirlari. Dehqon fermer xo'jaliklari istiqboli. (1991-2010 yillar).

Mustaqilligimiz sharofati bilan Shovot tumanida ham yangilanishlar va o'zgarishlar davri kirib keldi. Endi jamoa xo'jaliklari tugatilib o'rniga dehqon va fermer xo'jaliklari qaror topa bordi. Tumanning 1- rahbari –Yo'ldosh Xajiyev keyichalik B. Yoqubov hokimlik qilganlar.

1993 yildagi ma'lumotga ko'ra, Shovot tumanidagi fermerlarga 275 ga yer ajratilgan ammo, go'sht sut, tuxum kabi mahsulotlar yetishtirish kamayib ketgan. Ko'pchilik chorvachilik mahsulotlari yetishtirish o'rniga sholi va paxta bilan mashg'ulligi ko'rsatilgan.¹ Bu hali odamlar fermerlik faoliyatiga kirishib ketmaganligidan darak beradi. 2007 yildagi ma'lumotlarga qaraganda, ularning soni 2500 tadan oshib ketdi.

Mustaqillikdan keyin paxta tozalash zavodilari faoliyati yanada kengaytirildi. 1995 yilda Shovot tozalash korxonasi 1000 tonnalik tayyor mahsulot omborxonasi qurildi. "Monoq" paxta tayyorlash maskanida trikotaj polotnosi ishlab chiqaradigan fabrikaga birinchi g'isht qo'yildi. Zavodda yangi ish o'rinlari ochildi. Shovot paxta tozalash zavodi bugungi kunda ham samarali faoliyat yuritmoqda.²

Sovet davrida qurilishi boshlangan Shovot tumanidagi Shisha zavodi qurilishi yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Nihoyat 2001 yil aprel oyida zavod ishga tushirildi. Lekin gaz bosimining yetmaganligi natijasida uning faoliyati to'xtab qoldi. 2013 yilda 1- prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Xorazmni rivojlantirish dasturiga binoan zavod faoliyati ham yo'lga qo'yildi³

Oila pudrati tumanining boshqa xo'jaliklarida ham keng amal olgandi. Asl kasbu kori xalq shifokori bo'lgan Komiljon Jumaboevga Xitoy qishlog'i Qumavliy tevaraklarida chorvachilikni ixtisoslashgan "Yangi hayot" fermer xo'jaligi tashkil etish unchalar oson kechmadi.

Xo'jalik faoliyatining ikkinchi 1998 yil kuzi nihoyat kulib keldi. Bug'doy o'rniga takror ekilgan "Nukus" navli ertapishar sholi urug'i tekis ko'karib durkun hosilga kirdi.

Gektar boshiga yuz stentnerdan "Qirmizi don" xirmoni ko'tarildi. T-28. MTZ-80, T-4 "Oltoy" markali traktor sotib olindi, mollar bosh soni o'ttizdan ziyod "Yangi hayot"chilar ekin maydonlarini kengaytirish, hosildorlikni oshirish

¹ Шовот истиқболи. Фермер хўжаликларида аҳвол қандай? 1993, 30 ноябр.

² Худайберганов М. Хоразм пахта тозалаш саноати тарихи. -Тошкент: "Шарк", 2004, -Б. 97

³ Р. Тоҳиров. Дўст ҳақида сўз. - Тошкент: "Мухаррир", 2013, -Б. 40

chorvachilikni rivojlantirish yo'lida tinim bilmadilar. O'tgan xo'jalik yili yakunlari bunga yaqqol misol 15 tonna bug'doy, 2 tonna go'sht, 8 tonna sut sahili bog', 40 stentnerdan 60 tonna paxta. Go'sht, sut "Obi hayot" Oromgohi, bolalar bog'cha yaslilariga qo'sh-qo'llab yetkazilmoqda. 43 gektar maydon tadbirkor, ishbilarmonlar qo'lida ochildasturxonga aylanmoqda.

2005 yilda paxtadan 42 stentner bug'doydan 50 stentner hosil olindi. Go'sht sut planlari ham oshig'i bilan bajarildi. Umumiy daromad 35000000 so'm shundan olingan foyda 18000000 so'mni tashkil qildi. Fermer xo'jaliklari ko'paygangan ko'paya bordi.

Istiqlol dala darg'asi uchun yangi imkoniyatlar in'om etdi. Yuqoridan keladigan bo'rtirma raqam buyruqlar barham topdi. Yuqori hosil ustasi sifatida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimlari, Respublika 1-Prezidentining 2004 yil 26-avgust Farmoni bilan fidokorona xizmatlari uchun ordeni sohibi bo'ldilar.

Tuman dehqon fermer xo'jaliklarida ham ikki xil manzarali uchratish mumkin. Shovot qal'a, Xitoy Bo'yrachi Katqal'a qishloqlaridagi "Umid", "Hamdam", "Hamro o'g'li", "Quronboy" "Soutov Azimboy fermer xo'jaliklari yordamdan unumli foydalanib, g'alla, paxta va boshqa mahsulotlari yetishtirish salmog'ini yildan yilga oshirayotganlari statistik ma'lumotlarda alohida qayd etiladi.

1991-2005 yillardagi tuman qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rsatkichlari(t)

	Bahorgi va kuzgi bug'doy	Sholi	Paxta	Kartoshka	Poliz .	Sabzavot.
--	--------------------------	-------	-------	-----------	---------	-----------

1991		18.5	22.6	74.1	87.0	24.0
1995	29.1	22.5	30.3	54.4	67.7	106.2
1996	23.7	28.8	29.9	57.7	93.3	102.6
1997	48.8	45.5	35.4	70.5	141.0	149.8
1998	52.2	34.6	22.5	74.6	45.9	154.1
1999	55.2	37.0	29.6	101.2	81.7	151.7
2000	51.2	37.0	21.6	85.5	88.9	100.5
2001	29.8	7.8	23.0	116.8	100.5	148.7
2002	40.4	29.6	15.3	114.1	132.1	167.2
2003	28.9	39.9	16.1	192.3	137.0	195.8
2004	37.8	32.8	26.6	75.1	73.6	111.8
2005	38.1	33.8	26.1	92	85.7	168.4

2008 yil yarmiga ko'ra tuman qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 108 % ga uddalandi. Jumladan, 216,3 t pilla, 16738 t g'alla yetishtirildi. Tumandagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan hisoblaganda g'alla yetishtirish bo'yicha viloyatdagi ulushi 6,5 %, 8 o'rinda. Pilla yetishtirish bo'yicha viloyatdagi old o'rinlarda turadi.

Tuman qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — paxtachilik. Shovot tumanidagi 25,7 ming ga ekin maydonining 11,4 ming ga yeriga paxta, 9,3 ming ga yeriga don, 368 ga yeriga kartoshka, 799 ga yeriga sabzavot ekiladi, shuningdek, ozuqa, poliz ekinlari ham yetishtiriladi. (2008).

Tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Sanoat korxonalaridan paxta tozalash, podshipnik zavodlari, un kombinati ishlab turibdi. Charm mahsulotlari fabrikasi, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxonalar, „Semurg“, O'zbekiston-Germaniya „Shovotteks“ qo'shma korxonalarini faoliyat ko'rsatadi.

Tumanda bir nechta xorijiy davlatlar bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalar mavjud. Xususan, "KATQAL'A-TEKS" MCHJ qo'shma korxonasi (To'qilgan va trikotaj paypoq-noski mahsulotlari ishlab chiqarish), "HORIZM SHISHA IDISHLARI" MCHJ qo'shma korxonasi (Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish), "UZTEX SHOVOT" MCHJ qo'shma korxonasi (Paxta tolalarini tayyorlash va yigirish), "SHOVOT BO'YONI" agrofirma qo'shma korxonasi (CHoy va qahva ishlab chiqarish) va boshqalar mavjud.

Shovot tumanida uchta dehqon bozori mavjud: Monoq, Shovot, Qiyot bozorlari bor. Monoqda bitta davlat, ikkita shahsiy savdo nuqtasi ikki kooperativ, mahsulot qabul qilish punkti va bittadan qishloq uyushmasi mavjud.

3.2. Tumanning ijtimoiy hayoti, maorif, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalaridagi ahvol. Shovot yangilanishlar bo'sag'asida

Istiqlolga erishganimizdan keyin, barcha tumanlar qatori Shovot tumani ijtimoiy hayoti, madaniy ma'rifiy sohalarida o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Bilamizki, sho'ro davrida o'z arxivizga ega emas edik. 1992 yida tuman hokimligi yordamida arxiv (xujjatgoh) tashkil qilinib, tumanimiz tashkilot, korxonalar davlat tashkilotlari, jamoa xo'jaliklari hujjatlari to'plandi. Hozir bu hujjatgohda 20 ming jilddan ziyodroq hujjat saqlanmoqda. Ular asosan tumandagi korxonalar tashkilotlar, muassasalar jamoa xo'jaliklari a'zolarining shaxsiy tarkibiga oid hujjatlardir.¹

Tumanimizda "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi" 321 sonli qarori asosida, 2004-2006 yillarda 52- umumiy o'rta ta'lim maktabi uchun yangi bino qurildi. Bir qancha maktablar rekonstruksiya qilib ta'mirlandi. Hozirgi kunda 53 ta maktabning 27 tasi kompyuter bilan jihozlangan. Tumanda 38 ta maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud. 2007yil sentabrdan 53 –

¹ Шовот истикболи. Хужжатларга асосланар тарих. 2007, 13 апрел.

sonli maktab o'z faoliyatini boshladi.¹ Yoshlar yili munosabati bilan Ijtimoiyat qishlog'i 685 o'ringa mo'ljallangan qishloq kasb- hunar kolleji qad rostladi.²

Tumandagi 53 umumiy ta'lim maktabi (shu jumladan, 1 litsey)da faoliyat yuritmoqda. Bolalar musiqa, sport maktablari, 5 kasb-hunar kolleji faoliyat ko'rsatadi. 45 kutubxona (350 ming nusxa asar), 16 madaniyat uyi, Komiljon Otaniyozov nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog'i, Zarif Ramatov nomidagi muzey, „Motamsaro ona“ yodgorligi bor.(2008)

Maktab o'quvchilari orasidan muallimlar agronomlar, muhandis shifokorlar yetishib chiqqan boshladilar. Hozir tuman yoshlari orasidan uch fan doktori akademik Azimboy Sa'dullaev, filologiya fanlari doktori Hamdam Abdullaev, Komiljon Eshjonovlar, ellikka yaqin fan nomzodlari yetishib chiqdilar. 1-sho'ro maktabiga qabul qilingan ma'rifat qaldirg'ochlaridan O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti K.Otaniyozov, SSSR Xalq maorifi a'lochisi Matrasul Xudayberganov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahmudjon Safaevlar yetishib chiqdilar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Maryam Ixtiyorova ham Shovot farzandi bo'lganidan faxrlanamiz.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish dasturlari bo'yicha Shovot tumanida 7 stadion (shu jumladan, markaziy stadion), 46 sport zali, futbol, voleybol, basketbol maydonlari va boshqalar sport inshootlari mavjud. 3 kasalxona (shu jumladan, bolalar kasalxonasi, markaziy kasalxona, 534 o'rin), 4 tish davolash punktlari, 4 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 3 feldsher akusherlik punkti, 15 qishloq vrachlik punkti, poliklinika, tug'ruqxona, dorixona va boshqalar tibbiy muassasalarda 270 vrach (har 10 ming kishiga 21,6 vrach) ishlab turibdi. „Obi hayot“, „Shovot“ sanatoriylari faoliyat ko'rsatadi.

Shovot—Toshkent yo'nalishida yo'lovchilar tashuvchi poyezdlar qatnaydi. Tuman avtomobil va temir yo'llar orqali Qoraqalpog'iston, Turkmaniston va Rossiya bilan bog'langan. Shovot—Urganch yo'nalishida avtobus va marshrutli taksilar qatnovi yo'lga qo'yilgan.(2008)

¹ „Shovot istiqboli“. Davlat umummilliy dasturi amalda. 2008, 18 avgust

² „Shovot istiqboli“. Barqaror rivojlanish yo'lida. 2008, 28 avgust.

Shovot tumanida Vayangonbobo (1—4, 9—14-asrlar), Katqal'a (mil. av. 1-asr), Tuproqqal'a (mil. av. 1-asr) arxeologiya yodgorliklari mavjud bo'lib, Vayangonbobo maqbarasi (15-asr), Yusuf Hamadoniyning ramziy maqbarasi bor. 1932-yildan „Shovot istiqboli“ tuman gazetasi nashr etiladi (adadi 1000).

Shovot tumani — Xorazm viloyatidagi tuman. Viloyat hududdining 7.5 % ini egallaydi. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Janubidan Qo'shko'pir, janubi-sharqdan Urganch, sharqdan Yangibozor, shimoli-sharqdan Gurlan tumanlari, shimoliy, shimoli-g'arb va g'arbdan Turkmaniston bilan 63 km da uzunlikda chegaradosh. Tuman shimoldan janubga 35 km, g'arbdan sharqqa 45 km masofaga cho'zilgan. Yer yuzasi tekisliklardan iborat. Maydoni 0,46 ming km². Aholisi 136,200 kishi (2008). 163.4 ming kishi (2018). Tumanda 1 shaharcha (Shovot), 11 qishloq fuqarolari yig'ini (Beshmergan, Bo'yrachi, Ijtimoiyat, Katqal'a, Xitoy, Chig'atoyqal'a, Cho'qli, Shovotqal'a, O'zbekiston, Qang'li, Qiyot) 65 ta qishloq punkti va 55 ta mahalla mavjud. Markazi — Shovot shaharchasi hisoblanadi.

Tuman aholisi 136,200 kishi (2008), tuman aholisining o'rtacha zichligi 1 km²ga 296,1 kishidan to'g'ri keladi. Tuman aholisining asosiy qismini o'zbeklar (98,5 %), shuningdek, qozoqlar, turkmanlar, tatarlar, ruslar, ko-reyslar, qoraqalpoqlar va boshqalar millat vakillari tashkil qiladi.

Shovot tumani bugungi kunda Xorazm viloyatining bir qismi bo'lib hudud salohiyatini yuksalishida o'z o'rniga ega.

XULOSA

Shovot tumani xonliklar, sho'ro istibdodi yillarida ko'p azob kulfatlarni o'z boshidan kechirdi. Xorazmshohlar Xiva xonligi davridagi urush va kurashlarni qizil inqilob davrining quloq qilish, qamoq-azob uqubatlarini aslo unutib bo'lmaydi. Xalqimizning ne-ne ilmu savodli, iymon- e'tiqodli elga fidokor yigit qizlari ana shu urush va to'fonlarning qurboni bo'ldilar.

Sho'roning quvg'in qilish, jismonan yo'q qilish siyosati natijasida mutlaqo begunoh o'rtahol ba'zan esa kambag'al dehqonlar ham yo'q qilib yuborildi.

30-yillar o'rtalarida "uchlik" degan kasbi kori butkul chaqimchilikdan iborat bo'lgan tashkilot paydo bo'ldiki, uning xalq boshiga tortib kelgan zulm zahmatlariga o'lchov, chek-chegara bo'lmasa kerak. Qancha-qancha begunoh bandalar uchlik, NKVD chaqimchilari tomonidan yo'q qilinib yuborildi.

1926-1929 yillarda yangi maktablarda savodsizlikni tugatish, chala savodlikni bitirish kurslari tashkil bo'lib, keyinchalik lotin alifbosida saboqlar o'tilgan. 1930 yildan yoppasiga kolxozlashtirilish boshlangan.

Urush girdobi tuman aholisini ham qamrab olgan. Urushdan keyingi yillarda tuman hayotida iqtisodiy o'sish yuzaga keldi. Bu davrda tuman rivoji yo'lida katta xizmat qilgan Qo'chqor Quronboyev va Rahim Tohirovlarning qilgan ishlari diqqatga sazovordir.

O'zbekiston mustaqilligi qaror topgach, O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimovning dehqon va fermer xo'jaliklarni tashkil etish, uni rivojlantirish yuzasidan chiqargan farmon va qarorlari chiqarildi. Qaror yuzasidan Shovot tumanida ham hamjihatlik bilan ularni tashkil etish ishlari amalga oshirildi. O'tgan 2008- xo'jalik yilida mayda fermer xo'jaliklarini yiriklashtirish boshlangan edi. Avvalgi 2000 dan ziyod paxta, g'alla sabzavot, meva, pillachilik, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga mo'ljallangan fermer xo'jaliklari soni hozir 300 dan sal ziyodroqni tashkil qiladi. Fermer xo'jaliklarini yiriklashtirilishi mablag'ning bir fermer qo'liga jamlanib hosil etishirishni ko'paytirish, tarmoqlarni kengaytirishga xizmat qilish shubhasizdir.

Fermer xo'jaliklarining paxtachilik g'allachilik bilan bir qatorda chorvachilikni rivojlantirishga barakali hissa qo'shayotganliklari yaqqol ko'zga tashlanib bormoqda. Huddi shuningdek, ipakchilik tarmog'ini kengaytirish yuzasidan ham rejali tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tuman hayoti haqida gapirar ekanman, bu yurtda ilm-fan, adabiyot va san'at namoyondalari yetishib chiqqanligini alohida qayd etishim lozim. Modomiki, yurt tarixi Beruniy bobomiz kabi daholarga taqaladi. Bundan tashqari, Eshboy, Komiljon Otaniyozov, Jumanazar Bekchanov, Maryam Ixtiyorova, Mahmudjon Sapayev kabi yirik san'atkorlar, Bola baxshi, Qalandar baxshi, akademik Azimboy Sadullayevlar kabi istedod egalari, Achilbay Ramatov, Qahramon Quronboyev kabi jonkuyar o'g'lonlar, Salomat Vafo va Bahrom Ro'zimhammadlar kabi yozuvchi va shoirlar yetishib chiqqan zamin hisoblanadi. Ularning har birining xalqimizga qilgan va qilayotgan buyuk xizmatlari sharafiga munosibdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Shovot tumani tarixi, XX asrdagi rivojlanishi, Sho'ro davridagi kommunistik mafkuraga asoslangan toponimlar, hududdagi diqqatga sazovor ziyoratgoh va ularning tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar haqida yanada ko'proq bilish uchun etnografik ma'lumotlar ustida ishlash va to'plash talab qilinadi. Shundagina tuman tarixi to'laqonli yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siyosiy adabiyotlar:

- 1.1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.— Тошкент: Шарқ, 1998.
- 1.2. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. —Тошкент: Маънавият, 2008.
- 1.3. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7 – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
- 1.4. Mirziyayev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O’zbekiston”, 2017.

2. Ilmiy adabiyotlar

- 2.1. Джабборов И.М. Ремесло узбеков южного Хорезма в конце XIX начало XX вв. Среднеазиатский этнографический сборник. —М., 1971.
- 2.2. Худайберганов М. Хаёт давом этади. —Тошкент: 2017.
- 2.3. Матназарова Г. Хоразм ипаги. —Урганч: Хоразм, 1996.
- 2.4. Мехру шавкат йиллари. -Тошкент: Адолат, 1994.
- 2.5. Ниёзий Қ. Ҳаёт мактаби. —Тошкент: Фан, 1970.
- 2.6. Ражабов Н. Шовотликларнинг фарёди ва жасорати. —Урганч: Хоразм, 1995.
- 2.7. Таррох Бобожон. Хоразм навозандалари. —Тошкент: 1994.
- 2.8. Тоҳиров Р. Эл-юрт кайғуси ёхуд шукроналик туйғуси. —Тошкент: Турон замин зиё, 2015.
- 2.9. Тоҳиров Р. Дўст ҳақида сўз. — Тошкент: Мухаррир , 2013.
- 2.10. Тоҳиров Р. Мен Сенингман. -Тошкент: Турон замин зиё, 2017.
- 2.11. Тоҳиров Р. Олишув ва ғолиблик нашидаси. —Тошкент: Мухаррир, 2013.
- 2.12. Хасанбой Маткарим Эшон ўғли, Абдураим Аминжон Эшон ўғли. Султон Увайс Корайнин тарихи. —Тошкент: 1991.
- 2.13. Холимбетов К. Эшжонов Ш. Хоразм мироблари шажараси. -Урганч: Хоразм, 2001.
- 2.1. Хоразм тарихи. 1-жилд. —Урганч, 1996.
- 2.14. Хоразм тарихи. 2 жилд. —Урганч, 1997.
- 2.15. Худайберганов М. Хоразм пахта тозалаш саноати тарихи.- Тошкент: Шарқ, 2004.
- 2.16. Худоёров Б. Хаёт сўқмоқлари. -Урганч: Хоразм, 2004.

2.17. Шовот мавжлари. -Урганч: Хоразм, 2001.

3. Davriy ommabop nashrlar:

- 3.1. “Хива” журнали. 1993 й. Н: 2-3.
- 3.2. “Хоразм хақиқати” газетаси. 1930-1950 й.
- 3.3. “Шовот истиқболи” газетаси. 1991-2010 й.
- 3.4. Хоразм вилоят давлат архиви. 1926-1990 й.
- 3.5. Хоразм вилоят партия комитети архиви. 1934-1949 й.
- 3.6. Шовот туман статистика булими. 1991-2010 й.

4. Tavsiya qilinadigan web-saytlar:

- 4.1. [www.http/ Ziyonet.uz/ kutubxona](http://Ziyonet.uz/kutubxona).
- 4.2. [www.http/ Wikipedia.org](http://Wikipedia.org) -Internet entsiklopedik ma'lumotnoma
- 4.3. [www.http/ lib.ru](http://lib.ru) – Ijtimoiy-gumanitar fanlar internet kutubxonasi.

SHOVOT TUMANI

masshtab 1 : 95 000



Shovot tuman xaritasi